JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.01/2025.27.12.Fil.06.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

XAYDAROVA SHOIRA TOXIR QIZI

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA EVFEMIZMLARNING STRUKTUR-SEMANTIK XUSUSIYATLARI VA TARJIMA MUAMMOLARI

10.00.13 – Qiyosiy va chog‘ishtirma tilshunoslik

FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Jizzax – 2026

UO‘K: [811.512.133’373.496] 811.111’373.49

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

The contents of the dissertation abstract for a Doctor of Philosophy (PhD) in Philology

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам

Xaydarova Shoira Toxir qizi
Ingliz va o‘zbek tillarida evfemizmlarning struktur-semantik xususiyatlari va tarjima muammolari 3

Khaydarova Shoira Toxir qizi
Structural-semantic features of euphemisms in English and Uzbek languages and problems of translation 27

Хайдарова Шоира Тохир кизи
Структурно-семантические особенности эвфемизмов в английском и узбекском языках и проблемы перевода 55

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of publications 60

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.01/2025.27.12.Fil.06.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

XAYDAROVA SHOIRA TOXIR QIZI

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA EVFEMIZMLARNING STRUKTUR-SEMANTIK XUSUSIYATLARI VA TARJIMA MUAMMOLARI

10.00.13 – Qiyosiy va chog‘ishtirma tilshunoslik

FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Jizzax – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.1.PhD/Fil2307 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Jizzax davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume) Ilmiy kengash veb sahifasida jdpu.uz va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (portali (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Axmedov Oybek Saparboevich** filologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Mirsanov G‘aybulla Qulmurodovich** filologiya fanlari doktori, professor
	Ermetova Jamila Ismailovna filologiya fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	**Buxoro davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Jizzax davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.01/2025.27.12.Fil.06.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “____”_____ soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 130100, Jizzax shahri, Sh.Rashidov shoh ko‘chasi, 4. Tel.: (872) 226-13-57, 226-21-76; faks: (872) 226-46-56; e-mail: jspi_info@umail.uz. Jizzax davlat pedagogika universiteti. Bosh o‘quv bino, 2-qavat, kichik majlislar zali).

Dissertatsiya bilan Jizzax davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 130100, Jizzax shahri, Sh.Rashidov shoh ko‘chasi 4. Tel.: (872) 226-13-57, 226-21-76; faks: (872) 226-46-56.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “_____” _____ kuni tarqatildi.
(2026-yil “_____” _____ dagi _____raqamli reyestr bayonnomasi).

A.E. Mamatov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filolologiya fanlari doktori, professor

X.L. Maxammadiyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filolologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

I.R. Ermatov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida tilga munosabat faqat muayyan grammatik va leksik qoidalar tizimi sifatida emas, balki inson tafakkuri, dunyoqarashi, turmush tarzi, madaniyati, ijtimoiy munosabatlari, his-tuyg‘ulari hamda kommunikativ maqsadini aks ettiruvchi murakkab ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida yondashish ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Til birliklarini antroposentrik, pragmatik va lingvomadaniy tadqiq etilishi inson – til – tafakkur – madaniyat munosabatlarini ochib berish imkoniyatini yaratmoqda. Shu sababli muloqot jarayonida ishlatilishi noqulay, qo‘pol, tabu yoki ijtimoiy jihatdan sezgir tushunchalarni yumshoq va maqbul shaklda ifodalashga xizmat qiladigan evfemizmlarning lisoniy tabiatini o‘rganish zamonaviy tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biridir. Evfemik birliklarning shakllanishi va qo‘llanishi tilning ichki qonuniyatlari bilan bir qatorda, muayyan jamiyatning axloqiy me’yorlari, milliy mentaliteti, qadriyatlari, ijtimoiy munosabatlari va kommunikativ maqsadi bilan bevosita bog‘liqdir.

Dunyo tilshunosligida evfemizmlar dastlab, tabu tushunchalarning o‘rnida qo‘llanuvchi, nutqdagi qo‘pollik va noqulaylikni yumshatuvchi vositalar sifatida tadqiq etilgan bo‘lsa, bugungi kunda ularning struktur-semantik, pragmatik, kognitiv, sotsiolingvistik, lingvomadaniy xususiyatlarini umumlashtirgan holda o‘rganishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Evfemik birliklarning yuzaga kelish sabablari struktur tuzilishi va semantik guruhlari, ularning turli diskurslarda aks etishi, ijtimoiy-madaniy omillar ta’sirida o‘zgarishini, shuningdek, bir tildan boshqa tilga tarjima qilinishida ma’no va kommunikativ ta’sirning saqlanishi zamonaviy tadqiqotlarning muhim yo‘nalishlaridan hisoblanadi. Turli til oilalariga mansub evfemizmlarning universal va milliy-madaniy xususiyatlarini aniqlash, ingliz va o‘zbek tillaridagi evfemik birliklarning struktur hamda semantik jihatdan o‘xshash va farqli belgilarini qiyoslash, ularning tarjimasida denotativ ma’no bilan bir qatorda konnotativ, pragmatik va lingvomadaniy mazmunini qayta ifodalash usullarini tadqiq etish tilshunoslik va tarjimashunoslik oldidagi dolzarb vazifalardan biridir.

Yangi O‘zbekistonda so‘nggi yillarda o‘zbek tilining davlat tilli sifatidagi nufuzi va mavqeyini oshirish, uning lug‘aviy boyligini zamonaviy tilshunoslik paradigmalari asosida tadqiq etish, xoriiy tillarni o‘rganish va o‘qitish tizimini takomillashtirish, shuningdek, tarjimashunoslik va madaniyatlararo muloqot sohalarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratmoqda. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Milliy o‘zligimiz timsoli, ma’naviyatimiz asosi bo‘lgan ona tilimizga e’tibor yanada kuchaytiriladi. Bolalarimiz maktabdan ona tili va chet tillarni puxta o‘zlashtirib, kompyuterda ishlashni o‘rganib chiqishi zarur. Farzandlarimizni kasb-hunarlarga, san’at va madaniyatga qiziqtirishimiz lozim. O‘quvchilarda erkin va kreativ fikrlashni, jamoada ishlash va muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish zarur. Hozirgi ochiqlik siyosati, chet el investitsiyalari va yangi korxonalarning ortib borayotgani yoshlarimizni zamonaviy bilimlar va xorijiy tillarni o‘rganishga undash zarurati tilshunoslar oldiga jahon andozalariga

mos yangi vazifalarni belgilab berdi”[1] – degan fikrlarini alohida qayd etish lozim. Globallashuv sharoitida o‘zbek tilining boshqa tillar, xususan, ingliz tili bilan munosabatini chog‘ishtirma aspektda o‘rganish, milliy-madaniy mazmunga ega bo‘lgan til birliklarini tarjimada adekvat tarzda qayta yaratish usullarini takomillashtirish ilmiy va amliy ahamiyat kasb etmoqda. Zero, evfemizmlar nafaqat muayyan tushunchaning yumshatilgan ifodasinigina emas, balki xalqning milliy tafakkuri, nutqiy odobi, ijtimoiy qadriyatlari va madaniy me’yorlarini ham o‘zida aks ettiradi. Shu sababli ingliz va o‘zbek tillaridagi evfemizmlarning struktur-semantik xususiyatlarini qiyosiy o‘rganish, ularning tarjimasida yuzaga keladigan semantik, pragmatik va lingvomadaniy nomuvofiqliklarni aniqlash hamda ularni bartaraf etishning maqbul usullarini belgilash ilmiy amaliy ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF–4797-son “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”, 2019-yil 8-oktabrdagi PF–5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2019-yil 21-oktabrdagi PF–5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 20-oktabrdagi PF–6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2021-yil 19-maydagi PQ–5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2025-yil 20-oktabrdagi PQ–308-son “Davlat tilini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari hamda sohaga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida evfemizmlar, shu bilan bir qatorda, tabu so‘zlar etnolingvistika fanining alohida o‘rganish obyekti bo‘lib, XVIII asrda I.T.Gerder[2] hamda XIX asrning birinchi yarmida tilshunos olim V.Gumboldt[3] tomonidan bu fanga asos solingan va fan sifatida shakllangan. Evfemizm lingvistik tushunchasini dunyo tilshunosligiga tanishtirishda tilshunos olimlar, jumladan, L.A.Bulaxovskiy, A.A.Reformatskiy, B.A.Larin, L.P.Krisin, V.P.Moskvin, V.Z.Sannikov, E.E.Tyurina, N.S.Bolotnova, Z.Z.Kikvidze, L.V.Artyushkina, T.V.Kochetkova, T.V.Boyko, T.S.Bushuyevalar[4] ning xizmatlari

[1]Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг 2022 йил 20 декабрдаги Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига мурожаатномаси // “Халқ сўзи” 2022 йил 21 декабрь. №272(8334).

[2] https://www.projekt-gutenberg.org/herder/humanita/chap001.html

[3] Гумбольдт В. Язык и философия культуры. – М.: Прогресс, 1985. – С. 448.

[4]Булаховский Л.А. Введение в языкознание. – М, 1953. – С. 105; Реформатский А.А. Введение в языкознание. – М., 1967. – С. 110.; Ларин В.А. Об эвфемизмах Проблемы языкознания – М.: МГУ, 1961. – С. 89; Крысин Л.П. Можно ли по речи узнать интеллигента? // Общественные науки и современность. 2004. – № 5. – С. 157;

beqiyosdir. Rus tilshunosligida evfemizmlar A.M.Katsev, N.S.Boschayeva, L.N.Saakyan, Y.S.Baskova va E.O.Miloenko[5] kabi tadqiqotchilar tomonidan yoritib berilgan. Shuningdek, tabulashgan va evfemizmlashgan leksik birliklarning xususiyatlari quyida nomlari keltirib o‘tilgan rus va xorijiy tilshunoslar tomonidan ham keng tadqiq etilgan. Bundan tashqari, tabulashgan va evfemizmlashgan leksik birliklarning xususiyatlari quyida nomlari keltirib o‘tilgan rus va xorijiy tilshunoslar tomonidan ham keng tadqiq etilgan. Jumladan, J.Eytonning “Evfemizmlar”, “Tabu va evfemizmlar leksikasining inglizcha-ruscha lug‘ati”, M.A.Katsevning “Til tabusi va evfemiya”, B.A.Larinning “Evfemizmlar haqida” va S.Vidlaksning “Til nazariy maydoni fonida evfemizmlarning roli”[6] nomli asarlarida ushbu masalalar atroflicha o‘rganilgan. L.A.Bulaxovskiy, A.A.Reformatskiy va B.A.Larin evfemizmlarni tarixiy nuqtayi nazardan qadimiy tabu asosida tadqiq etgan. Rus tilida evfemizmlarning vosita va maqsadlarini tasvirlash bilan L.P.Krisin, V.P.Moskvin, V.Z.Sannikov va E.P.Senichkina[7] shug‘ullangan. A.M.Katsev, N.S.Boschayeva, N.L.Saakayan, Y.S.Baskova va E.O.Miloyenko o‘z tadqiqotlarida ingliz va rus tillaridagi evfemizmlarning xususiyatlarini o‘rgangan. G.A.Vildanova o‘zining zamonaviy ingliz tilida evfemiya va muloyimlik prinsipi mavzusidagi bir necha yillik izlanishlari mobaynida asosiy urg‘uni ingliz tilidagi evfemizmlarning gender jihatlariga qaratgan holda batafsil tahlil qilgan[8]. N.Baskakov esa oltoy xalqlari tillaridagi evfemistik nominatsiyalar muammolarini yoritib bergan.

O‘zbek tilshunosligi doirasida evfemizm tushunchasi ilk marotaba Ne’mat

---

Москвин В.П. Выразительные средства современной русской речи. Тропы и фигуры. Терминологический словарь. Архивировано 17 ноября 2020; Санников В.З. Морфологический компонент лингвистического процессора // Всесоюзноя конференция по искусственному интеллекту. Тезисы докладов. – Переславль-Залесский, 1988. – С. 56-72; Тюрина Е.Е. Семантический статус эвфемизмов и их место в системе номинативных средств языка (на материале английского языка): Автореф.дис.кан.филол.наук. – Нижний Новгород, 1998. – С. 18; Болотнова Н.С. Эвфемизация в современном словоупотреблении и языкавая компетенция личности // Языковая компетенция. – Новосибирск, 1998, 4.1. – С.19-23; Киквидзе З.З. Социолингвистический аспект изучения грамматического эвфемизма в разносистемных языках // Актуальные проблемы лингвистики и лингводидактики. – Тюмень, 1997. – С. 38-42;Артюшкина Л.В. Семантический аспект эвфемистической лексики в современном английском языке: Автореф.дисс…. канд.филол.наук. – М. 2001. – С. 17; Кочеткова Т.В. Эвфемизмы в речи носителя элитарной речевой культуры // Вопросы стилистики. –Саратов, 1998. –Вып. 27. – С.168-178; Бойко Т.В. Эвфемия и дисфемия в газетном тексте: Автореф.дисс…канд.филол.наук. – М.: 2005. – С. 38; Бушуева Т.С. Прагматический аспект эвфемизмов и дисфемизмов в современном английском языке: Автореф.дисс….канд.филол.наук. – Смоленск, 2019. – С. 42.

[5]Кацев А.М. Языковое табу и эвфемия. – М.: 1988. – С. 86; Босчаева Н.Ц. Эвфемистичность в диалогической речи. – Л.: ЛГУ, – №4, 1989. – С. 79-81; Саакян Л.Н. Эвфемия как прагмалингвистическая категория в дискурсивной практике непрямого речевого убеждения: Автореф.дисс….канд.филол.наук. – Москва, 2010. – 24 с.; Баскова Ю.С. Эвфемизмы как средство манипулирования в языке СМИ. (на материале русского и английского языков): Автореф.дисс….канд.филол.наук.– Краснодар, 2006. – С. 24; Милоенко Е.О. Специфика функционирования эвфемизмов в индивидуальном лексиконе. Автореф. на соис.учен.степени кандиата фил.наук. – Курск, 2009, – С. 29.

[6] Эйто Дж. Эвфемизмы. Англо-русский словарь лексики табу и эвфемизма. – М.: 1994.; Кацев А.М. Языковое табу и эвфемия. – М.: 1988. – С. 86; Ларин В.А. Об эвфемизмах Проблемы языкознания. – М: МГУ, 1961. – С. 89; Видлакс С. “Проблема эвфемизма на фоне теорий языкового поля” (1965; 1967). – С. 115.

[7] Крысин Л.П. Можно ли по речи узнать интеллигента? // Общественные науки и современность. 2004. – № 5. – С. 157; Москвин В.П. Эвфемизмы в лексической системе современного русского языка Изд. стереотип. – Москва, 2006. – С. 255; Санников В.З. Морфологический компонент лингвистического процессора // Всесоюзноя конференция по искусственному интеллекту. Тезисы докладов. –Переславль-Залесский, 1988. – С. 56-72; Сеничкина Е.П. Эвфемизмы русского языка. – Москва, 2006. – С. 143.

[8]Вилданова Г.А. Эвфемия и принцип вежливости в современном английском язике: гендерний аспект. Монография. – Москва-Берлин: Директ-Медиа, 2015. – С. 16.

Ismatullayev tomonidan o‘rganilgan[9]. Anvar Omonturdiyev chorvador nutqi misolida evfemizmlarni o‘zining doktorlik dissertatsiyasida atroflicha o‘rgangan[10] . N.Ismatullayevning “Zamonaviy o‘zbek tili efemizmlari”[11] nomli tadqiqoti doirasida hamda B.O‘rinboyev[12]ning ishlarida evfemizmlar haqida qimmatli fikrlar aytilgan. A.E.Mamatov o‘zining doktorlik dissertatsiyasida frazeologizmlarning evfemik va disfemik shakllanishiga alohida e’tibor qaratgan[13]. X.Qodirova, Z.Xolmanova, D.Rustamova[14]lar ham ushbu lingvistik hodisa haqida qimmatli ma’lumotlar qoldirgan. Sh.Q.Shamsiyeva[15] esa xitoy va o‘zbek tillaridagi evfemizmlarni lingvomadaniy jihatdan tadqiq etgan. Bundan tashqari, N.G‘aybullayeva[16] tibbiy evfemizmlarni davriy nashr materiallari asosida o‘rgangan bo‘lsa, Sh.G‘ulomova[17] asosiy e’tiborni evfemizmlarning gender xoslanishiga qaratgan. N.Ro‘ziyeva ingliz va o‘zbek tillaridagi evfemizmlarni konseptual chog‘ishtirma-qiyosiy tadqiq etgan. Ta’kidlash zarurki, noqardosh ikki til – ingliz va o‘zbek tillarida evfemizmlarni diaxronik va sinxron tahlili, hosil bo‘lishi va tarjima muammolariga bag‘ishlangan tadqiqot ishlari deyarli mavjud emas.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Jizzax davlat pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot rejasining “Raqamli ta’lim muhitida zamonaviy lingvistika, adabiyotshunoslik, madaniyatlararo muloqot va tarjimashunoslikning dolzarb mummolari” mavzusidagi ilmiy yo‘nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ingliz va o‘zbek tillaridagi evfemizmlarni chog‘ishtirish orqali ularning struktur-semantik xususiyatlarini va ularni tarjima qilish jarayonida uchraydigan muammolarni aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

evfemizm hodisasining nazariy-metodologik asoslarini aniqlash, evfemizmga berilgan lingvistik talqinlarni umumlashtirish hamda uning tabu va perifraza kabi yondosh hodisalar bilan munosabatini belgilash;

ingliz va o‘zbek tillaridagi evfemizmlarning diaxronik va sinxronik xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilish, ularning yuzaga kelishi, semantik o‘zgarishi,

---

[9] Исматуллаев Н. Эвфемизмы в современном узбекском языке: Автореф. дисс…канд. филол. наук. –Т.: 1963. – С. 19.

[10] Омонтурдиев А.Ж. Эвфемик восталарнинг функционал хусусиятлари:Филол. фан.номз..дисс. –Т., 1997. – Б. 176 .

[11]Исматуллаев Н. Ҳозирги ўзбек тилида эвфемизмлар. ТошДПИнинг Илмий асарлари, 42-т., 1-китоб. 1963. – Б. 3-59.

[12]Ўринбоев Б.Ў. Сўзлашув нутқи ва эвфемизм // Ўзбек тилининг айрим масалалари. – Т., 1979. – Б. 63.

[13]Маматов А.Э. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиши масалалари: Филол. фанлари д-ри... дисс. – Т., 1999. – Б. 123.

[14]Қодирова Х. Абдулла Қодирийнинг эвфемизм ва дисфемизмдан фойдаланиш маҳорати: Филол. фан. номз. ... дисс. – Т., 2011.; Холманова З.Т. Бобурнома лексикаси тадқиқи: Филол. фанлари д-ри... дисс. автореф. – Т., 2009. – Б. 52; Рустамова Д. Метафорик эвфемизациянинг лингвокультурологик ва социопрагматик аспектлари: Филол. фан. б. фалс. д-ри ... дисс. автореф. – Ф, 2017. – Б. 51.

[15]Шамсиева Ш.Қ. Хитой ва ўзбек тилларидаги маиший эвфемизмларнинг лнгвомаданий тадқиқи: Филол. фанлари д-ри... дисс. автореф.. – Т., 2020. – 53 б.

[16]Ғайбуллаева Н.И. Ўзбек тилида тиббий эвфемизмлар (тиббий даврий нашрлар асосида): Филол. фанлари д-ри... дисс. автореф.. – Бухоро, 2019. – Б. 50 б.

[17]Ғуломова Ш.К. Ўзбек тили эвфемизмларининг гендер хусусиятлари: Филол.фан.бўй.фалсафа доктори дисс... автореф. – Бухоро, 2019. – 59 б.

eskirishi va yangilanishida tarixiy-ijtimoiy, siyosiy, diniy hamda milliy-madaniy omillarning rolini ochib berish;

ingliz va o‘zbek tillarida evfemik nominatsiyaning struktur-semantik va derivatsion modellarini aniqlash, morfologik, sintaktik va semantik usullarning, shuningdek, metafora, metonimiya, sinekdoxa, perifraza va boshqa bilvosita nominatsiya vositalarining evfemik ma’no shakllantirishdagi funksional xususiyatlarini qiyosiy asosda tahlil qilish;

ingliz va o‘zbek tillari o‘rtasida evfemizmlarni tarjima qilish muammolarini aniqlash va tizimlashtirish, denotativ mazmun bilan bir qatorda konnotativ, stilistik, lingvomadaniy va ijtimoiy-pragmatik komponentlarni saqlashga xizmat qiluvchi tarjima usullarining qo‘llanish shartlarini asoslash.

Tadqiqotning obyektini ingliz va o‘zbek tillarida qo‘llaniladigan evfemik birliklar, xususan, ijtimoiy, madaniy, axloqiy, diniy, siyosiy va kommunikativ jihatdan noqulay yoki sezgir mazmunni bevosita emas, balki bilvosita va yumshatilgan shaklda ifodalovchi leksik, frazeologik va sintaktik birliklar tashkil etadi.

Tadqiqotning predmetini ingliz va o‘zbek tillaridagi evfemizmlarning struktur-semantik, lingvomadaniy va pragmatik xususiyatlari hamda ularni tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan muammolar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda qiyosiy-chog‘ishtirma, tavsifiy (deskriptiv), leksik-semantik, komponent tahlili, tasniflash, kontekstual tahlil, lingvomadaniy va pragmalingvistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ingliz va o‘zbek tillaridagi evfemizm, tabu va perifraza birliklarining funksional-semantik munosabati aniqlashtirilib, perifrazaning evfemistik maqomi uning shakliy xususiyatlari bilan emas, balki ijtimoiy jihatdan noqulay yoki sezgir mazmunni bilvosita va yumshatilgan tarzda ifodalashga xizmat qiluvchi kommunikativ funksiyasi bilan belgilanishi asoslangan;

ingliz va o‘zbek tillaridagi evfemizmlarning diaxronik-sinxronik taraqqiyoti qiyosiy asosda baholanib, evfemik birliklarning yuzaga kelishi, semantik qayta talqin qilinishi, eskirishi va yangi nominatsiyalar bilan almashinuvi tarixiy-ijtimoiy, siyosiy, diniy hamda milliy-madaniy o‘zgarishlar bilan uzviy bog‘liqligi ochib berilgan;

ingliz va o‘zbek tillarida evfemik birliklarning morfologik, sintaktik va semantik shakllanish modellari qiyosiy jihatdan tizimlashtirilib, ularning realizatsiyasida qiyoslanayotgan tillarning struktur-tipologik xususiyatlari namoyon bo‘lishi, evfemik ma’noning shakllanishida esa affiksatsiya, birikmali va perifrastik konstruksiyalar, metafora, metonimiya hamda boshqa bilvosita nominatsiya vositalarining funksional imkoniyatlari aniqlangan;

evfemizmlarni o‘zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qilishda yuzaga keladigan leksik-semantik, konnotativ, stilistik va lingvomadaniy nomuvofiqliklar tizimlashtirilib, tarjima adekvatligini ta’minlashda shakliy moslikdan ko‘ra evfemik birlikning kommunikativ-pragmatik funksiyasi va evfemik ta’sirini qayta yaratish ustuvorligi asoslangan hamda ekvivalent tarjima,transliteratsiya, transpozitsiya, kalka va izohlash usullarining qo‘llanish shartlari belgilangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

qardosh bo‘lmagan ikki til – ingliz va o‘zbek tillaridagi evfemizm tushunchasining mazmun-mohiyatiga izoh berilib, uning qo‘llanish darajasi va mohiyati, ingliz tilidagi evfemizmlarning o‘ziga xos xususiyatlari, o‘zbek tilidagi ushbu lingvistik tushunchaning yuzaga kelishi, asrlar mobaynida qay darajada o‘zgarishi va shuningdek, ikkala tildagi evfemizmlarning semantik guruhlari o‘rganilib, misollar orqali asoslangan;

ingliz va o‘zbek tillaridagi evfemizmlarni tarjima qilishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan unsurlar, ya’ni ular ko‘zda tutayotgan milliy-madaniy jihatlari, leksik-semantik mohiyati, milliy-lisoniy, uslubiy xususiyatlari, ekstralingvistik va intralingvistik qiymati, ijtimoiy-pragmatik omillari dalillangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi bir qator ilmiy va metodologik omillar bilan izohlanadi, tadqiqotning nazariy asoslari tilshunoslikning zamonaviy ilmiy konsepsiyalariga, shuningdek, o‘rganilayotgan masalaga oid vakolatli ilmiy manbalarga asoslanadi, tahlilga tortilgan materiallar qiyosiy-chog‘ishtirma, deskriptiv, leksik-semantik, tasniflash va pragmalingvistik tahlil kabi turli metodlarning kompleks qo‘llanilishi vositasida chuqur o‘rganilgan, tadqiqot doirasida ilgari surilgan nazariy fikrlar va xulosalar amaliyotga joriy etilgan bo‘lib, ularning ishlashi va samaradorligi eksperimental tarzda ko‘rsatilgan. Nihoyat, olingan ilmiy natijalar tegishli soha mutaxassislari va vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangan, ularning obyektivligi va ishonchliligi rasmiy ravishda qayd etilgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, avvalo, evfemizmlarni chog‘ishtirma-tipologik tahlil qilish orqali ularning lingvistik tuzilishi, milliy-madaniy xususiyatlari va leksik-semantik jihatlarini o‘rganishda yangi yondashuvlarni taklif etishida namoyon bo‘ladi, tadqiqotda ishlab chiqilgan metodologik yondashuvlar va olingan natijalar nafaqat chog‘ishtirma tilshunoslikning rivojlanishiga, balki lingvistik tadqiqotlarning uslubiy bazasini boyitishga ham xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati uning natijalaridan “Tarjima nazariyasi”, “Chog‘ishtirma tilshunoslik”, “Lingvomadaniyatshunoslik”, “Amerika adabiyoti” kabi fanlar bo‘yicha o‘quv qo‘llanmalar va darsliklar yaratishda, magistratura va doktorantura dissertatsiyalarida, shuningdek, terminologik lug‘atlarni takomillashtirishda samarali foydalanish imkoniyatida ifodalanadi, tadqiqot materiallari, shuningdek, amaliy tarjima jarayonida evfemik iboralarni muqobil ifodalash usullarini o‘rgatishga qaratilgan maxsus kurslar va treninglar uchun asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ingliz va o‘zbek tillarida evfemizmlarning struktur-semantik xususiyatlari va tarjima muammolariga bag‘ishlangan tadqiqot jarayonida erishilgan ilmiy natijalar asosida:

ingliz va o‘zbek tillaridagi evfemizmlar chog‘ishtirma aspektda struktur-semantik va lingvomadaniy jihatdan tizimlashtirilib, ularning shakllanishida morfologik, sintaktik va semantik vositalar bilan bir qatorda perifrazal va frazeologik konstruksiyalarning evfemik mazmunni bilvosita ifodalashdagi funksional xususiyatlari aniqlangan ilmiy xulosalardan muallif tomonidan

tayyorlangan “American Literature” nomli o‘quv qo‘llanmani yaratishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 7-maydagi 149-649-son guvohnomasi). Natijada, o‘quv qo‘llanmaning nazariy mazmuni evfemizmlarning struktur-semantik va lingvomadaniy xususiyatlariga oid ilmiy ma’lumotlar bilan boyitilib, badiiy matnlarni o‘rganish jarayonida evfemik birliklarning qiyosiy tahliliga oid metodik imkoniyatlar kengaytirilgan;

evfemizm, tabu va perifraza hodisalarining o‘zaro munosabati aniqlashtirilib, perifrazaning har qanday holatda ham evfemizm hisoblanmasligi, balki muayyan kommunikativ va kontekstual sharoitlarda ijtimoiy yoki kommunikativ jihatdan noqulay mazmunni yumshatish funksiyasini bajarishi asoslangan ilmiy xulosalardan 2020–2023-yillarda bajarilgan AM-F3-201908172 raqamli “O‘zbek tilining ta’limiy korpusini yaratish” mavzusidagi amaliy loyiha doirasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 8-noyabrdagi 04/1-5394-son ma’lumotnomasi). Natijada, loyiha doirasida shakllantirilgan o‘quv-uslubiy materiallarning evfemizm, tabu va bilvosita nominatsiya hodisalarining o‘zaro munosabatini yorituvchi nazariy ma’lumotlar bilan boyitilishiga erishilgan;

ingliz va o‘zbek tillaridagi evfemik birliklarning semantik va pragmatik xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinib, metafora, metonimiya, sinekdoxa, bilvosita nominatsiya hamda perifrazal ifodalarning evfemik ma’no shakllanishidagi roli va ularning milliy-madaniy hamda kommunikativ omillar bilan bog‘liqligi asoslangan ilmiy natijalardan muallif tomonidan tayyorlangan “American Literature” nomli o‘quv qo‘llanmani yaratishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 7-maydagi 149-649-son guvohnomasi). Natijada, o‘quv qo‘llanmaning tegishli mavzulari evfemik birliklarning semantik-pragmatik va lingvomadaniy xususiyatlariga oid ilmiy ma’lumotlar bilan to‘ldirilib, Amerika adabiyoti namunalarini o‘rganishda evfemik ifodalarning mazmuni va kommunikativ funksiyasini qiyosiy tahlil qilish imkoniyatlari kengaytirilgan;

ingliz va o‘zbek tillaridagi evfemik birliklarni tarjima qilish jarayonida ularning denotativ mazmuni bilan bir qatorda konnotativ, pragmatik, stilistik va lingvomadaniy xususiyatlarini saqlash muammolari aniqlanib, perifrazal va boshqa bilvosita nominativ vositalarning tarjimada funksional jihatdan qayta yaratilish imkoniyatlari chog‘ishtirma tahlil asosida asoslangan ilmiy natijalardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston-24” ijodiy birlashmasi “O‘zbekiston” teleradiokanali tomonidan tayyorlangan “Ta’lim va taraqqiyot”, “Adabiy jarayon”, “Jahon adabiyoti” radioeshittirishlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2025-yil 23-oktabrdagi 05-09-1668-son ma’lumotnomasi). Natijada, radioeshittirishlar ssenariylarini tayyorlashda ingliz va o‘zbek tillaridagi evfemik birliklarning mazmuniy, uslubiy, pragmatik va lingvomadaniy xususiyatlarini hisobga olish hamda ularni kommunikativ jihatdan muvofiq tarzda ifodalash imkoniyatlari kengaytirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 9 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan, 2 ta respublika va 7 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, ulardan 3 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan bo'lib, hajmi 143 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti, usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, joriy qilinishi, aprobatsiyasi, nashr qilingan ishlar, dissertatsiya tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **"Evfemizmlarning nazariy asoslari"** deb nomlanadi. Dissertatsiyaning birinchi bobining birinchi fasli "Evfemizm bilan bog'liq nazariy qarashlar"ga bag'ishlangan. "Evfemizm" so'zi yunoncha "eu" ("yaxshi") va "phemi" ("gapiryapman") so'zlaridan kelib chiqqan[18]. Evfemizmlar – bu og'zaki yoki yozma nutqda qo'llaniladigan, ma'nosi neytral yoki yumshoq bo'lgan so'z va iboralar bo'lib, qo'pol yoki nojo'ya so'zlarning ya'ni "Tabu" so'zlarning o'rniga ishlatiladi. Frokmeyn va Rodman evfemizmni "taqiqlangan so'zning o'rnini bosadigan yoki qo'rqinchli, noqulay mavzulardan qochish uchun ishlatiladigan so'z yoki ibora" deb ta'riflaydilar[19].

Evfemizm terminining ilk bor lug'atga kiritilishi XVII asr o'rtalariga to'g'ri keladi. 1656-yilda Tomas Blauntning "Glossografiya" lug'ati nashrdan chiqdi. Unda evfemizm tushunchasi quyidagicha izohlangan: " A good or favorable interpretation of a bad word"[20]. Yuqoridagi izohni umumlashtiradigan bo'lsak, evfemizm tushunchasi qo'pol, noqulay, ijtimoiy jihatdan nomaqbul yoki bevosita ifodalashdan qochiladigan mazmunni yumshoqroq, bilvosita va kommunikativ jihatdan maqbul shaklda ifodalash usulini anglatadi. Shu nuqtayi nazardan, evfemizm va tabu hodisalari o'zaro uzviy aloqador tushunchalar sifatida namoyon bo'ladi.

O'zbek tilshunosligida "evfemizm" atamasi 1964-yilda N.Ismatullayevning "Hozirgi o'zbek tilida evfemizmlar"[21] nomli dissertatsiyasi orqali kiritilgan. Olim o'sha davrda chop etilgan ilmiy ishlarida evfemistik hodisa haqidagi mulohazalarini bayon etib, evfemizmlarning etnogenezisiga e'tibor qaratgan va uning tabu bilan bog'liqligini ko'rsatgan.

---

[18] Enright, Dominique. In Other Words. Michael O´Mara Books Limited, London, 2004. – P. 45.

[19] Fromkin, V., Rodam, R. An Introduction to Language. Harcourt Brace College Publishers, 1993. – P. 473.

[20] Blount T. Glossographia: Or, A Dictionary Interpreting All Such Hard Words Of Whatsoever Language, Now Used In Our Refined English Tongue. L.: Tbo, Newcomb, 1656. – P.677.

[21] Исматуллаев Н. Эвфемизмы в современном узбекском языке: Автореф.дисс. канд. Филол.наук. – Ташкент, 1964. – С. 23.

Tadqiqotda evfemizmning perifraza bilan munosabati alohida nazariy masala sifatida tahlil qilingan. Perifraza predmet, shaxs yoki hodisani bevosita nomlash o‘rniga uning muayyan belgisi, xususiyati yoki vazifasi orqali tasviriy ifodalash vositasi hisoblanadi[22]. Biroq har qanday perifraza evfemistik xususiyat kasb etmaydi. Masalan, *sher – hayvonlar podshohi* birikmasida tasviriy-obrazli nominatsiya mavjud bo‘lsa-da, bevosita nomlashdan qochish yoki noqulay mazmunni yumshatish maqsadi kuzatilmaydi. Aksincha, *o‘ldi – bu dunyoni tark etdi*, *o‘ldi – olamdan o‘tdi* birliklarida o‘lim tushunchasi bilvosita ifodalanib, uning emotsional ta’siri yumshatiladi. Demak, mazkur birliklar bir vaqtning o‘zida perifrazaning struktur-semantik va evfemizmning kommunikativ-pragmatik xususiyatlarini namoyon etadi.

Evfemizm va perifrazani farqlashda kontekstual-pragmatik mezonning ustuvorligi asoslangan. Casas Gomesning nazariy yondashuviga ko‘ra, lingvistik birlikning evfemistik yoki disfemistik xususiyati uning shakli bilangina emas, balki muayyan kommunikativ vaziyatdagi funksiyasi orqali belgilanadi[23]. Masalan, *tark etmoq* fe’li alohida olinganda odatiy leksik birlik bo‘lsa, *U bu dunyoni tark etdi* jumlasida o‘limni bevosita nomlashdan qochish va uning emotsional og‘irligini kamaytirish vazifasini bajaradi. Bu esa evfemiklikning muayyan birlikka doimiy biriktirilgan strukturaviy belgi emas, balki nutqiy vaziyatda yuzaga chiqadigan funksional-semantik xususiyat ekanligini ko‘rsatadi.

Mazkur bobning *“**Ingliz va o‘zbek tillaridagi evfemizmlarning diaxron tadqiqi**”* deb nomlangan ikkinchi faslida tildagi har bir leksik qatlamning shakllanishi va rivojlanishi mana shu tildan foydalanadigan jamiyatning madaniy, ijtimoiy hamda siyosiy hayoti bilan uzviy bog‘liq ekanligi asoslangan.

Ingliz tilidagi evfemizmlarning diaxronik taraqqiyoti qadimgi diniy tasavvurlar, o‘rta asrlar, Uyg‘onish davri, XVIII–XIX asrlardagi ijtimoiy-axloqiy o‘zgarishlar hamda zamonaviy kommunikativ jarayonlar bilan bog‘liq holda o‘rganilgan. Dastlabki bosqichlarda evfemik nominatsiyaning shakllanishida diniy tabu va g‘ayritabiiy kuchlardan qo‘rqish omillari ustuvor ahamiyat kasb etgan. Jumladan, qadimgi yunon mifologiyasida qasoskor ma’budalarni ifodalovchi *Eumenides (“mehribonlar”)* nomining qo‘llanishi salbiy yoki qo‘rqinchli mazmunni ijobiy baholovchi nominatsiya orqali yumshatishning tarixiy ko‘rinishi sifatida izohlangan. Ushbu birlikda evfemik ma’no nominatsiyaning denotativ mazmuni bilan baholovchi konnotatsiyasi o‘rtasidagi ziddiyat asosida yuzaga keladi.

O‘rta asrlar ingliz tilida evfemizmlarning rivojlanishiga xristian dini, cherkovning ijtimoiy mavqeyi va feodal jamiyatdagi tabaqalanish sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Diniy tushunchalarni bevosita nomlashdan qochish natijasida *The Almighty (“Qudratli”), The Lord of Hosts (“Qo‘shinlar egasi”), The Prince of Darkness (“Zulmat shahzodasi”)* kabi bilvosita nominatsiyalar qo‘llangan. Mazkur birliklarda diniy tushunchalar ularning belgisi, maqomi yoki vazifasi asosida ifodalanib, evfemik nominatsiyaning perifrazik modeli namoyon bo‘ladi..

[22]Ҳожиев А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985. – Б. 80.

[23] Casas Gómez, M. Towards a New Approach to the Linguistic Definition of Euphemism // Language Sciences. – 2009. – Vol. 31, No. 6. – P. 731–737

Uyg‘onish davrida ingliz evfemizmlarining funksional imkoniyatlari kengayib, ular diniy va axloqiy cheklovlarni ifodalash bilan bir qatorda, badiiy tasvir, kinoya, ijtimoiy tanqid va so‘z o‘yini vositasiga aylangan. U. Shekspir asarlarida ikki ma’nolilik, metaforik nominatsiya va bilvosita ishoralardan foydalanish evfemik ifodalarning estetik hamda pragmatik imkoniyatlarini namoyon etadi.

O‘zbek tilidagi evfemizmlarning tarixiy taraqqiyoti qadimgi turkiy yozma yodgorliklar, mumtoz adabiyot, xalq og‘zaki ijodi hamda milliy urf-odatlar bilan bog‘liq holda tahlil qilingan. Tadqiqotda “Qutadg‘u bilig”, “Devonu lug‘otit turk”, Alisher Navoiy asarlari va “Boburnoma” evfemik nominatsiyaning tarixiy xususiyatlarini o‘rganish uchun muhim manbalar sifatida ko‘rib chiqilgan. Mazkur manbalarda *o‘lim, jazo, axloqiy xatti-harakat, ijtimoiy mavqe va diniy tushunchalarning* bilvosita ifodalanishi turkiy xalqlarning milliy dunyoqarashi hamda nutqiy odob me’yorlari bilan bog‘liq holda izohlangan.

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida axloqiy va ijtimoiy munosabatlarni bilvosita ifodalashga xizmat qiluvchi birliklar tahlil etilgan[24]. Jumladan, tadqiqotda keltirilgan

‘‘Ajal keldi, kechdi o‘mrung, ayrıldıng bu dunyadın”

misrasida o‘lim tushunchasi umrning tugashi va dunyodan ayrilish obrazlari orqali ifodalanishi qayd etilgan. Mazkur birliklarda bevosita nominatsiya o‘rniga metaforik va diniy-madaniy mazmunga ega ifodalar qo‘llanishi o‘lim bilan bog‘liq evfemizmlarning tarixiy shakllanishida xalqning dunyoqarashi muhim o‘rin tutganligini ko‘rsatadi.

O‘zbek mumtoz adabiyotida evfemik nominatsiyaning semantik va uslubiy imkoniyatlari, ayniqsa, o‘limni ifodalovchi birliklarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarida *shunqor bo‘lmoq, Tengri rahmatig‘a boribtur, bu olamdin o‘tmoq, dunyoyi foniyni vido qilmoq, olamdin naql qildi, rixlat qildi* kabi ifodalar o‘lim hodisasini turli semantik va konnotativ vositalar orqali ifodalashga xizmat qilgan. Ushbu birliklarda o‘limning bevosita nominatsiyasi o‘rniga *ketish, ko‘chish, ilohiy rahmatga erishish va dunyo bilan vidolashish* kabi obrazlar qo‘llanadi[25]. Natijada bir semantik maydonga mansub evfemik birliklarning diniy, emotsional va uslubiy jihatdan farqlanuvchi xususiyatlari yuzaga chiqadi.

Dissertatsiyaning **“Ingliz va o‘zbek tillaridagi evfemizmlarning sinxron tadqiqi**” deb nomlangan uchinchi faslida evfemizmlarning sinxron tadqiqiga bag’ishlangan.

Evfemizm hodisasining lingvokognitiv va pragmatik mohiyatini yoritishda A. Omonturdiyevning “Evfemik nutq tafakkurning, inson aql-zakovatining oliy formasi, “qaymog‘i”, voqelikning pardozlangan, “parda ichiga olingan”, beozorlashtirilgan, yumshatilgan obrazli ifodasidir”[26] degan fikri alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Olimning mazkur qarashi evfemizatsiya jarayoni nafaqat til

[24] Odilova, D. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asaridagi badiiylikni ta’minlovchi lingvistik vositalar. Modern Science and Research, 2024, 3(5), 343–348. Retrieved from https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/31734

[25]Teshaboyeva Z., Abdazova G. “Boburnoma”da ekvivalent so‘zlar masalasi va inglizcha tarjimalari xususida // Translation Forum. – 2022. – Vol. 2, Special Issue 28. – B. 287–288.

[26] Омонтурдиев А. Ж. Профессионал нутқ эвфемикаси. – Тошкент: Фан, 2006. – Б. 11

birliklarining semantik jihatdan qayta nomlanishi, balki inson tafakkuri, milliy-madaniy qadriyatlar va nutqiy odob me'yorlari bilan uzviy bog'liq murakkab lingvopragmatik hodisa ekanligini ko'rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, evfemizmlar voqelikdagi noxush, noqulay yoki ijtimoiy jihatdan tabu hisoblangan tushunchalarni bilvosita nominatsiya asosida ifodalash, ularning salbiy emotsional ta'sirini yumshatish hamda muloqot jarayonida kommunikativ muvozanatni ta'minlashga xizmat qiluvchi til vositalari sifatida tavsiflanadi. Ingliz tilshunosi D. Kameronning evfemizmlar noqulay mavzularni yumshatish bilan birga, ayrim vaziyatlarda voqelikni niqoblash vositasi sifatida ham qo'llanishi haqidagi yondashuvi esa mazkur hodisaning ikki tomonlama pragmatik tabiatini ko'rsatadi[27].

Tadqiqotda ingliz tilidagi evfemizmlarning mavzuviy tasnifini yoritishda H. Ravsonning "A Dictionary of Euphemisms and Other Doubletalk" asaridagi yondashuvga tayanilgan[28]. Mazkur tasnif doirasida evfemik birliklar insonning ***shaxsiy hayoti, fiziologik ehtiyojlari, kasallik va o'lim, kasb-hunar, ijtimoiy mavqe, jinoyat, siyosat hamda harbiy faoliyat*** bilan bog'liq semantik guruhlarda tahlil qilingan. Jumladan, ingliz tilidagi *in a family way (homilador), to relieve oneself (hojatga chiqmoq), departed (vafot etgan), sanitation worker (sanitariya xodimi), correctional facility (axloq tuzatish muassasasi)* kabi birliklarda bevosita nominatsiyaning kommunikativ jihatdan maqbulroq muqobil bilan almashtirilishi kuzatiladi. Ushbu misollar evfemizmlarning qo'llanish doirasi faqat an'anaviy tabu mavzular bilan chegaralanmasdan, zamonaviy ijtimoiy munosabatlarning turli sohalarini ham qamrab olishini ko'rsatadi.

Sinxron tadqiq doirasida K. Allan va K. Burrijning ilmiy yondashuvlari asosida evfemik birliklarning shakllanishida ***fonologik, morfologik, leksik-semantik va sintaktik v***ositalarning ishtiroki ko'rib chiqilgan[29]. Ingliz tilidagi *damn – darn* almashinuvida tovush tarkibining o'zgarishi, *die – pass away* munosabatida leksik-semantik almashtirish, *He died – He is no longer with us* konstruksiyalarida esa sintaktik kengayish va bilvosita ifodalash orqali evfemik mazmun yuzaga keladi.

Evfemizmlarning kommunikativ-pragmatik vazifalari *tabu tushunchalarni bilvosita ifodalash, nutqiy odobni saqlash, salbiy bahoni yumshatish, ijtimoiy mavqeni oshirish hamda ayrim holatlarda voqelikning salbiy jihatlarini niqoblash* bilan belgilanadi. Xususan, ingliz tilidagi *restroom (hojatxona), economically disadvantaged (iqtisodiy imkoniyati cheklangan), senior citizen (keksa yoshdagi fuqaro)* birliklarida xushmuomalalik va ijtimoiy hurmat funksiyalari ustuvorlik qilsa, *collateral damage (harbiy harakatlar oqibatidagi qo'shimcha talafotlar), enhanced interrogation (kuchaytirilgan so'roq)* kabi ifodalarda salbiy voqelikni neytrallashtirish yoki uning og'irligini kamaytirib ko'rsatish imkoniyati yuzaga keladi. Demak, evfemizmlarning pragmatik xususiyati faqat yumshatish vazifasi bilan chegaralanmay, kommunikativ maqsadga ko'ra ijobiy baholash yoki manipulyativ ta'sir ko'rsatish funksiyasini ham bajarishi mumkin.

---

[27] Cameron, D. Verbal hygiene. London: Routledge, 1995, – P.140.

[28] Rawson H. A Dictionary of Euphemisms & Other Doubletalk: Being a Compilation of Linguistic Fig Leaves and Verbal Flourishes for Artful Users of the English Language. – New York: Crown Publishers, 1981. – P. 1–3.

[29] Allan, K. & Burridge, K. Forbidden Words: Taboo and the Censoring of Language. Cambridge, 2006, – P.13-14

O‘zbek tilidagi evfemizmlarning sinxron tadqiqida A. Hojiyev, M. Mirtojiyev, X. Qodirova va N. Ro‘ziyevaning nazariy qarashlari asosida ularning semantik hamda funksional xususiyatlari yoritilgan. Jumladan, *bandalikni bajo keltirmoq (vafot etmoq), og‘iroyoq (homilador), ko‘z yummoq (vafot etmoq), yoshi ulug‘ (keksa)* kabi birliklarda diniy-madaniy tasavvurlar, milliy odob me’yorlari va hurmat kategoriyasi bilan bog‘liq evfemik ma’no namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot doirasida evfemizmlarning ***kasb-hunar, kasallik va o‘lim, fiziologik jarayonlar, iqtisodiyot hamda siyosiy faoliyatga*** oid semantik guruhlari chog‘ishtirma tahlil qilingan. **Kasb-hunar evfemizmlari**ga inglizcha *garbage man – sanitation engineer, road sweeper – cleaning operative* hamda o‘zbekcha *farrosh – obodonlashtirish xodimi, tozalovchi – texnik xodim* kabi nomlashlarni keltirishimiz mumkin.Ular kasbning ijtimoiy nufuzini oshirish va salbiy baholashni kamaytirish vazifasi bajaradi. Ushbu birliklar evfemizatsiyaning zamonaviy kasbiy muloqotda ijtimoiy mavqeni qayta baholash bilan bog‘liq xususiyatlarini namoyon etadi.

Kasallik va o‘limga oid evfemizmlar har ikki tilda eng faol semantik guruhlardan biri sifatida tavsiflangan. Ingliz tilidagi *passed away, passed on, the deceased, hard of hearing* birliklari hamda o‘zbek tilidagi *dunyodan o‘tmoq, bandalikni bajo keltirmoq, olamdan ketmoq, ko‘zini yummoq, qulog‘i og‘ir* kabi ifodalar salbiy emotsional ta’sirni kamaytirish va muloqot ishtirokchilarining psixologik holatini hisobga olishga xizmat qiladi.

Fiziologik jarayonlarga oid evfemizmlarning qiyosiy tahlili ham milliy nutqiy odob me’yorlarining o‘ziga xosligini ko‘rsatadi. Ingliz tilidagi *expecting, in the family way, with a baby on the way* birliklariga o‘zbek tilidagi *bo‘yida bo‘lmoq, yukli, ikkiqat, og‘iroyoq* kabi evfemik ifodalar semantik jihatdan muvofiq keladi. Har ikki tilda mazkur birliklar bevosita nominatsiyani yumshatish vazifasini bajarsada, ularning obrazli asoslari va uslubiy xususiyatlari bir xil emas. Bu esa evfemik birliklarning mazmuniy yaqinligi ularning to‘liq lingvomadaniy ekvivalentligini har doim ham ta’minlamasligini ko‘rsatadi.

Iqtisodiy va siyosiy muloqotda qo‘llaniladigan evfemizmlar zamonaviy ijtimoiy munosabatlarning lingvistik ifodasi sifatida tahlil qilingan. Ingliz tilidagi *downsizing (xodimlar sonini qisqartirish), low income (past daromad), collateral damage (qo‘shimcha talafotlar*) hamda o‘zbek tilidagi *iqtisodiy pasayish, kutilmagan yo‘qotishlar* kabi birliklar salbiy mazmunni neytrallashtirish, voqelikni nisbatan maqbul shaklda taqdim etish yoki uning ijtimoiy ta’sirini kamaytirish vazifalarini bajaradi. Mazkur holat evfemizmning xushmuomalalik vositasi bo‘lish bilan bir qatorda, muayyan kommunikativ maqsadni amalga oshiruvchi pragmatik vosita ekanligini ko‘rsatadi.

Bobning uchinchi paragrafi “**Ingliz va o‘zbek tillaridagi morfologik usulda yasalgan evfemizmlar**” deb nomlanadi. Evfemik ma’noning yuzaga kelishida derivatsion vositalar bilan bir qatorda, ayrim grammatik shakllarning *hurmat, e’zoz va xushmuomalalik* mazmunini ifodalash imkoniyatlari ham muhim o‘rin tutishi ko‘rsatilgan.

Ingliz va o‘zbek tillarida morfologik evfemizmlarning shakllanishida **affiksatsiya** muhim vositalardan biri hisoblanadi. Ingliz tilida *prefiksatsiya va suffiksatsiya*, o‘zbek tilida esa, asosan, *suffiksatsiya* orqali yangi leksik birliklar hosil

qilinadi. Jumladan, ingliz tilidagi *untruth (yolg‘on* tushunchasining nisbatan bilvosita ifodasi), *indisposed (betob, tobi yo‘q), non-traditional (an’anaviy bo‘lmagan), unhoused (uy-joyga ega bo‘lmagan) kabi birliklarda inkor yoki mavjud emaslikni bildiruvchi prefikslar salbiy maz*munni bevosita nomlamasdan ifodalash imkonini beradi[30]. Bunda *un-, in-, non-* prefikslari grammatik-semantik inkor ma’nosini yuzaga keltirsa, ularning evfemik xususiyati muayyan kommunikativ vaziyat va qo‘llanish maqsadiga bog‘liq holda namoyon bo‘ladi.

O‘zbek tilida esa *-li, -lik, -iy, -mand, -siz* kabi affikslar evfemik birliklar tarkibida ishtirok etishi aniqlangan. Masalan, *ehtiyojmandlik* birligida *-mand* va *-lik* qo‘shimchalari orqali iqtisodiy nochorlik bilan bog‘liq tushuncha nisbatan rasmiy va yumshoq shaklda ifodalanadi. *Rahmatlik* so‘zida *-lik* qo‘shimchasi ishtirokida shakllangan birlik vafot etgan shaxsga nisbatan hurmat va ehtirom mazmunini ifodalaydi. Mazkur misollar evfemik ma’no affiksning o‘ziga xos doimiy semantik belgisi sifatida emas, balki hosila birlikning umumiy mazmuni va nutqiy kontekstida shakllanishini ko‘rsatadi.

Ingliz tilidagi suffiksatsiya vositasida shakllangan birliklar ham evfemizatsiyaning muhim manbalaridan biri sifatida tahlil qilingan. Xususan, *beautician* (*go‘zallik mutaxassisi*), *retiree* (*nafaqaga chiqqan shaxs*), *mortician* (*dafn marosimlari bilan shug‘ullanuvchi mutaxassis*) kabi birliklarda kasbiy faoliyat, ijtimoiy maqom va shaxsning holatini nisbatan neytral yoki ijobiy baholovchi nominatsiya orqali ifodalash kuzatiladi. Bunda *-ician, -ee* kabi suffikslar yangi leksik birliklar hosil qilishda ishtirok etadi, evfemik ta’sir esa hosila so‘zning muayyan ijtimoiy vaziyatdagi qo‘llanishi orqali yuzaga chiqadi. O‘zbek tilidagi *obodonlashtirish xodimi, texnik xodim* kabi muqobillarda esa shunga yaqin kommunikativ maqsad ko‘proq tavsifiy birikmalar yordamida amalga oshiriladi.

Kompozitsiya usulining evfemik nominatsiyadagi o‘rni ham chog‘ishtirma asosda yoritilgan. Ingliz tilidagi *restroom (hojatxona), bathroom (yuvinish xonasi, ayrim kontekstlarda hojatxona), powder room (ayollar hojatxonasi), senior citizen (keksa yoshdagi fuqaro), correctional facility (axloq tuzatish muassasasi), pre-owned (ilgari foydalanilgan)* kabi birliklarda bevosita nominatsiya o‘rniga predmet yoki hodisaning vazifasi, xususiyati yoxud ijtimoiy maqomiga asoslangan muqobil ifodalar qo‘llanadi. Ushbu birliklar tarkibida kompozitsiya va tavsifiy nominatsiya vositalari ishtirok etib, noqulay mazmunning salbiy konnotatsiyasini kamaytirishga xizmat qiladi.

O‘zbek tilida ham evfemik mazmunni ifodalashda qo‘shma va ko‘p komponentli birliklar muhim ahamiyatga ega. Jumladan, *ko‘z yummoq (vafot etmoq), ko‘zi yorimoq (farzand dunyoga keltirmoq), qulog‘i og‘ir (eshitishida qiyinchiligi bor), ko‘zi ojiz (ko‘rish imkoniyati cheklangan)* kabi birliklarda bevosita nominatsiya metaforik va tavsifiy vositalar bilan almashtiriladi. Mazkur misollar morfologik va sintaktik shakllanish usullari o‘rtasidagi aloqadorlikni ko‘rsatadi.

Qisqartirish ham ingliz tilida evfemik nominatsiyani shakllantirish vositalaridan biri sifatida ko‘rib chiqilgan. Xususan, ***B.O.*** *(*body odour — tananing yoqimsiz hidi), ***VD*** (venereal disease — tanosil kasalligi), ***WC*** (water closet —

[30]Ahmed, D., Müller, E. Affixation and Reduplication Across Languages. International Journal of Linguistics, 2020.

hojatxona) kabi qisqartmalar ayrim kommunikativ vaziyatlarda noqulay tushunchaning to‘liq nominatsiyasini chetlab o‘tishga xizmat qilishi mumkin. O‘zbek tilidagi ***OITS*** (odam immunitet tanqisligi sindromi) kabi qisqartmalar esa, avvalo, terminologik ixchamlikni ta’minlaydi. Ularning evfemik xususiyati har bir holatda kontekstual-pragmatik mezon asosida belgilanadi. Demak, qisqartma shaklning mavjudligi o‘z-o‘zidan evfemiklikni yuzaga keltirmaydi.

Ingliz va o‘zbek tillaridagi evfemizmlarning morfologik shakllanishini chog‘ishtirish natijasida ikki tilning tipologik xususiyatlari evfemik nominatsiya vositalarining tanlanishiga ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan. Ingliz tilida *prefiksatsiya, suffiksatsiya, kompozitsiya va qisqartiris*h orqali hosil qilingan birliklar muhim o‘rin tutsa, agglutinativ xususiyatga ega o‘zbek tilida *suffiksatsiya, grammatik shakllar hamda ko‘p komponentli tavsifiy ifodalar* evfemik mazmunni yuzaga chiqarishda ishtirok etadi.

Ikkinchi bobning ikkinchi faslida *“***Ingliz va o‘zbek tillarida sintaktik usulda yasalgan evfemizmlar***”* ochib berilgan.

Tadqiqotda ingliz tilidagi sintaktik evfemizmlar *majhul nisbat, nominalizatsiya, shaxssiz konstruksiyalar, modal fe’llar, inkor shakllari* hamda bilvosita *nominatsiyaga asoslangan gap modellari* doirasida tahlil qilingan. Jumladan, *Mistakes were made* (*Xatolar qilindi*) konstruksiyasi *I/We made mistakes (Men/Biz xatolar qildik)* ifodasiga nisbatan harakat bajaruvchisini ochiq ko‘rsatmasligi bilan farqlanadi. Bunda majhul nisbat vositasida asosiy kommunikativ urg‘u harakat subyektidan uning natijasiga ko‘chiriladi. Mazkur misol sintaktik evfemizatsiyaning javobgarlikni mavhumlashtirish va salbiy axborotning kommunikativ ta’sirini kamaytirish bilan bog‘liq xususiyatlarini namoyon etadi.

Nominalizatsiya ingliz tilidagi sintaktik evfemizatsiyaning muhim vositalaridan biri sifatida tavsiflangan. Ushbu jarayonda harakat yoki jarayon otlashgan konstruksiya orqali ifodalanib, uning bevosita ta’siri nisbatan mavhumlashtiriladi. Masalan, *The termination of his employment* (Uning mehnat faoliyatining tugatilishi) birikmasi *He was fired* (U ishdan bo‘shatildi) ifodasiga nisbatan rasmiy va bilvosita mazmun kasb etadi. Shuningdek, *There will be some collateral damage (Muayyan qo‘shimcha talafotlar yuz beradi)* konstruksiyasida harbiy harakatlarning salbiy oqibatlari umumlashtirilgan nominatsiya orqali ifodalanadi. Bunday birliklarda evfemik ta’sir faqat grammatik shakl bilan emas, balki abstraktlashtiruvchi leksik tanlov bilan ham bog‘liq ekanligi ko‘rsatilgan.

Shaxssiz konstruksiyalar orqali shakllangan evfemik ifodalarda harakat bajaruvchisi yoki qaror qabul qiluvchi subyektning nutqiy ifodadan chetlashtirilishi kuzatiladi. Xususan, *It was decided that his services are no longer required* (*Uning xizmatlariga endilikda ehtiyoj yo‘qligi haqida qaror qabul qilindi*) jumlasi *We fired him (Biz uni ishdan bo‘shatdik*) ifodasiga nisbatan rasmiy va bilvosita xarakterga ega. *There will be reductions* (*Qisqartirishlar bo‘ladi*) konstruksiyasida ham harakat subyekti ko‘rsatilmasdan, uning natijasi umumlashtirilgan holda taqdim etiladi.

Ingliz tilidagi *modal konstruksiyalar* ham bilvosita nutqiy ta’sirni yuzaga keltiruvchi vositalar sifatida o‘rganilgan. Jumladan, *Would you like to step outside? (Tashqariga chiqishni istarmidingiz?)* konstruksiyasi *Get out! (Chiqib keting!)*

buyrug‘iga nisbatan xushmuomalaroq ifoda hisoblanadi. *I was wondering if you could possibly... (Siz, ehtimol, ... qila olarmidingiz, deb o‘ylagandim)* shaklida esa to‘g‘ridan-to‘g‘ri talab bilvosita iltimosga aylantiriladi.

Inkor vositalari orqali yuzaga keladigan sintaktik yumshatish ham alohida tahlil qilingan. Ingliz tilidagi *Her performance was not bad* (*Uning chiqishi yomon emas edi*), *This situation is not ideal* (*Bu holat ideal emas*) kabi konstruksiyalarda bevosita ijobiy yoki salbiy baho o‘rniga inkor shakli orqali bilvosita munosabat bildiriladi. Bunday birliklarda ma’no to‘g‘ridan-to‘g‘ri nominatsiya orqali emas, balki inkor va baholash munosabatining o‘zaro ta’siri natijasida yuzaga chiqadi. Bu holat sintaktik evfemizatsiyaning semantik jihatdan yumshatish va pragmatik jihatdan ehtiyotkor munosabat bildirish funksiyalari bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi.

O‘zbek tilidagi sintaktik evfemizmlar ham *majhul nisbat, nominalizatsiya, shart va ehtimollik konstruksiyalari, inkor vositalari, metaforik gap qurilmalari hamda so‘roq shaklidagi* bilvosita iltimoslar asosida tahlil qilingan. Jumladan, *Qaror qabul qilindi* konstruksiyasida qaror qabul qiluvchi subyekt ochiq ko‘rsatilmaydi, *Korxonada kadrlar sonini qisqartirish rejalashtirilmoqda* ifodasida esa xodimlarni ishdan bo‘shatish bilan bog‘liq salbiy mazmun rasmiylashtirilgan nominal konstruksiya orqali beriladi

O‘zbek tilida *shartlilik, ehtimollik va so‘roq konstruksiyalari* vositasida yuzaga keladigan bilvosita ifodalar ham muhim pragmatik vazifa bajaradi. Masalan, *Bu fikr to‘g‘ri bo‘lmasa kerak* jumlasi keskin rad etish o‘rniga ehtiyotkor munosabatni ifodalasa, *Uning ko‘rinishi yomon emas* kabi inkorli konstruksiyalarda esa baholashning keskinligi kamayadi. Mazkur misollar o‘zbek tilida sintaktik yumshatishning nutqiy odob, hurmat va kommunikativ muvozanatni saqlash bilan bog‘liq xususiyatlarini ko‘rsatadi.

Ikkinchi bobining **“Ingliz va o‘zbek tillarida semantik usulda hosil bo‘lgan evfemizmlar”** deb nomlangan uchinchi faslida ingliz va o‘zbek tillarida evfemizmlarning semantik usul orqali hosil bo‘lish mexanizmlari qiyosiy jihatdan tahlil qilingan.

Evfemik birliklarning semantik tuzilishini aniqlashda ularni *monosemantik* va *polisemantik* guruhlarga ajratish mezoni qo‘llanilgan. **Monosemantik evfemalar** muayyan nutqiy muhitda bir evfemik mazmunni ifodalashga ixtisoslashganligi bilan tavsiflanadi. Xususan, o‘lim tushunchasini ifodalovchi *bandalikni bajo keltirmoq, oxirat, u dunyo* kabi birliklar diniy-madaniy tasavvurlar bilan bog‘liq holda o‘lim va undan keyingi hayot haqidagi tushunchalarni bevosita nomlamasdan ifodalaydi. Mirmuhsinning “Qissalar” asaridan keltirilgan “*Ha, Abdunabi sarroj ham bandalikni bajo keltirdi*” jumlasida *bandalikni bajo keltirdi* birikmasi vafot etish hodisasini diniy e’tiqod va insoniy ehtirom bilan uyg‘unlashtirgan holda ifodalashi bilan xarakterlanadi.

Polisemantik evfemalar esa bir necha o‘zaro aloqador ma’nolarni ifodalash imkoniyati bilan ajralib turadi. Bunda evfemik mazmunning aniqlanishi kontekst, nutqiy vaziyat va muallifning kommunikativ maqsadiga bog‘liq bo‘ladi. Jumladan, Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida qo‘llangan *oradan ko‘tarmoq* birikmasi ayrim kontekstlarda shaxsni jismonan yo‘q qilish, boshqa o‘rinlarda esa siyosiy yoki ijtimoiy mavqeyidan mahrum etish mazmunida keladi. Asarda

Homidning Otabek va Mirzakarim akani “oradan ... ko‘tarish” niyatiga oid tasvirlar hamda Azizbekni “oradan ko‘tarish” haqidagi fikrlar mazkur birlikning turli vaziyatlarda farqlanuvchi semantik mazmunini namoyon etadi.

Semantik evfemizatsiyaning asosiy mexanizmlaridan biri ***metaforik ko‘chim*** ekanligi yoritilgan. Metafora orqali salbiy yoki noqulay hodisa boshqa tushunchaning obrazli xususiyatlari asosida qayta nomlanadi. Jumladan, o‘zbek tilidagi *olamdan o‘tmoq*, *hayotdan ko‘z yummoq*, *qazo qilmoq* kabi ifodalar o‘limni bevosita nomlash o‘rniga hayotning yakunlanishi, bir holatdan boshqa holatga o‘tish yoki taqdir bilan bog‘liq tasavvurlar asosida ifodalaydi. Ingliz tilidagi *passed away, he has gone to a better place, he has left us* kabi birliklarda ham o‘lim hodisasi ketish, uzoqlashish yoki boshqa makonga o‘tish obrazlari orqali yumshatiladi.

Metonimik evfemizatsiyada esa tushunchalar o‘rtasidagi o‘xshashlikdan ko‘ra, ularning predmet, hodisa yoki vaziyat doirasidagi aloqadorligi asosiy o‘rin tutadi. spirtli ichimliklarni bilvosita nomlashga oid *dori, zahar* kabi birliklar mazkur ko‘chimga misol sifatida tahlil qilingan. Xususan, Cho‘lponning “Yorqinoy” asarida *Keling, yig‘ingizni tarqatish uchun guldan yasalgan dori beraman* jumlasidagi *dori* so‘zi spirtli ichimlikni bevosita nomlamasdan, uning muayyan vaziyatdagi tasavvur etilgan ta’siri orqali ifodalashga xizmat qiladi.

Sinekdoxik ko‘chim asosida shakllangan evfemalarda qism va butun munosabatiga tayangan holda bilvosita nominatsiya yuzaga keladi. Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida farzandga nisbatan qo‘llangan “tuyoq” birligi mazkur hodisaning xarakterli namunasidir. Asardagi “*...dunyoda o‘zimizdan keyin qolatirg‘on tuyoqimiz ... faqat shul Otabekdir*” mazmunidagi ifodada “tuyoq” so‘zi avlod davomiyligi, yagona farzand va oilaviy umid tushunchalari bilan bog‘lanadi. Bunda insonning bevosita nomi o‘rniga uning avlodni davom ettirish vazifasi bilan assotsiativ aloqador birlik qo‘llanadi.

Vazifadoshlik **asosidagi evfemizatsiya** predmet yoki hodisalarning bajaradigan vazifasi o‘rtasidagi o‘xshashlikka tayanadi. Abdulla Qodiriyning “Bildirishlar” asaridan olingan “*sotib berilgan molning oqchasi arra”* ifodasi mazkur hodisaga misol sifatida keltirilgan. *“Arra*” birligining foydani bo‘lib olish mazmunida qo‘llanishi predmetning asosiy vazifasi bilan ko‘chma ma’no o‘rtasidagi aloqadorlikka asoslanadi. Ushbu misol semantik ko‘chim jarayonida predmetning funksional belgisi yangi nominativ mazmunni yuzaga keltirishga xizmat qilishini ko‘rsatadi.

Kinoyaviy evfemizatsiyada esa birlikning yuzaki ijobiy yoki neytral mazmuni bilan uning kontekstda anglashiladigan salbiy bahosi o‘rtasida qarama-qarshilik yuzaga keladi. Jumladan, *“vijdonli”* so‘zining *“vijdonsiz”*, *“kelishgan”* birligining *“beo‘xshov”* mazmunida kinoyaviy qo‘llanishi bevosita salbiy bahoni bilvosita ifodalashga xizmat qilishi mumkin. Bunday hollarda evfemik ta’sirning mavjudligi nutqiy vaziyat, intonatsiya va so‘zlovchining kommunikativ maqsadiga bog‘liq bo‘ladi.

Semantik evfemizatsiyaning muhim xususiyatlaridan yana biri implitsit, ya’ni yashirin mazmun orqali ifodalanishidir. Bunda noqulay yoki tabu bilan bog‘liq tushuncha bevosita nomlanmaydi, balki nutqiy vaziyat, ishora, sukut, intonatsiya yoxud matndagi tushirib qoldirilgan komponentlar orqali anglashiladi. Abdulla

Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanidagi “Siz o‘shami?” — “Men o‘sha” dialogida “o‘sha” ko‘rsatish olmoshi personajlarning o‘zaro munosabati va hissiy kechinmalariga oid keng mazmunni ixcham shaklda ifodalaydi. Mazkur misol kontekstning semantik mazmunni shakllantirishdagi rolini ko‘rsatadi. Shuningdek, *badiiy matnda ko‘p nuqta yordamida ifodalangan tugallanmagan haqorat yoki qarg‘ishlar ham tabu bilan bog‘liq mazmunning bevosita verbal ifodadan chetlashtirilishini* namoyon etadi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Evfemizmlarni tarjima qilish muammolari va strategiyalari”** deb nomlangan.Tadqiqotda evfemizmlar tarjimasida yuzaga keladigan muammolar **lingvistik** va **ekstralingvistik** guruhlarga ajratilgan. **Lingvistik muammolar** *leksik-semantik nomuvofiqlik, grammatik qurilishdagi farqlar, frazeologik birliklarning muqobilsizligi, uslubiy bo‘yoqdorlik va pragmatik mazmunning o‘zgarishi* bilan bog‘liq bo‘lsa, **ekstralingvistik muammolar** *milliy-madaniy qadriyatlar, diniy-axloqiy qarashlar, ijtimoiy me’yorlar, tarixiy tajriba hamda kommunikativ vaziyatning o‘ziga xosligi* bilan izohlangan.

Evfemizmlar tarjimasining asosiy mezonlari sifatida semantik, stilistik va pragmatik muvofiqlik belgilangan. Semantik muvofiqlik asliyatdagi evfemizm orqali ifodalangan predmet, hodisa yoki holatning asosiy mazmunini saqlashni; stilistik muvofiqlik uning nutqiy-uslubiy xususiyatlari va emotsional-ekspressiv bo‘yoqdorligini qayta yaratishni; pragmatik muvofiqlik esa evfemizmning yumshatish, bilvosita ifodalash, hurmat bildirish yoki noqulay mazmunning kommunikativ ta’sirini kamaytirish vazifasini tarjima tilida ta’minlashni nazarda tutadi. Shu jihatdan evfemizm tarjimasining adekvatligi faqat lug‘aviy ma’noning to‘g‘ri berilishi bilan emas, balki asliyatdagi kommunikativ ta’sirning qay darajada saqlanganligi bilan ham belgilanadi.

Ingliz va o‘zbek tillarining strukturaviy-tipologik tafovutlari evfemizmlarni tarjima qilishdagi muhim lingvistik omillardan biri sifatida tahlil qilingan. Ingliz tilida analitik xususiyatlarning ustunligi evfemik mazmunning ko‘pincha mustaqil so‘zlar birikmasi, frazeologik konstruksiya va ixcham atributiv birliklar orqali ifodalanishiga imkon bersa, o‘zbek tilining agglutinativ tabiati grammatik va derivatsion ma’nolarning affikslar hamda kengaytirilgan sintaktik konstruksiyalar orqali yuzaga chiqishida namoyon bo‘ladi. Jumladan, ingliz tilidagi *let go, senior citizen, economically disadvantaged* kabi birliklar o‘zbek tilida *ishdan bo‘shatmoq, yoshi ulug‘ inson, iqtisodiy jihatdan imkoniyati cheklangan* kabi turli strukturaviy modellarga asoslangan muqobillar orqali ifodalanishi mumkin.

Mazkur holat ingliz va o‘zbek tillarida evfemik birliklarning shakliy tuzilishi bir xil bo‘lmasa-da, ularning semantik va pragmatik vazifalari muayyan kontekstlarda o‘zaro muvofiqlashishi mumkinligini ko‘rsatadi.

O‘zbek tilidagi *rahmatlik* leksemasi va uning ingliz tilidagi *late* muqobili orqali funksional-pragmatik ekvivalentlik masalasi yoritilgan. Jumladan, “*Rahmatlik bobom bu voqeani ko‘p gapirib berardi*” jumlasining “*My late grandfather used to tell this story often”* tarzida tarjima qilinishi ikki tildagi evfemik birliklarning morfologik tuzilishi farqlansa-da, ularning kommunikativ vazifasi o‘zaro yaqinligini namoyon etadi. O‘zbek tilidagi *rahmatlik* birligi derivatsion tuzilishga ega bo‘lsa, ingliz tilidagi late ushbu kontekstda mustaqil leksik birlik sifatida qo‘llanadi. Har

ikkala birlik vafot etgan shaxsni hurmat bilan eslash vazifasini bajaradi. Bu esa evfemizmlar tarjimasida formal-morfologik moslikdan ko‘ra funksional-pragmatik ekvivalentlik ustuvor ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi.

Evfemik birliklarni tarjima qilishda ***strukturaviy kengayish va siqilish transformatsiyalari*** ham muhim o‘rin tutishi aniqlangan. ***Strukturaviy kengayishda*** asliyatdagi ixcham birlik tarjima tilida ko‘p komponentli konstruksiya orqali ifodalanadi. Masalan, ingliz tilidagi *correctional facility* birligi o‘zbek tilida *jazoni ijro etish muassasasi*, *financially challenged* ifodasi esa *moliyaviy jihatdan qiynalayotgan* yoki *moliyaviy imkoniyati cheklangan* tarzida berilishi mumkin. Aksincha, ***strukturaviy siqilish*** jarayonida o‘zbek tilidagi *hayotdan ko‘z yumdi*, *olamdan o‘tdi* kabi ko‘p komponentli evfemizmlar ingliz tilidagi *passed away* birligi orqali ifodalanadi. Bunday transformatsiyalar grammatik tuzilishni mexanik tarzda saqlash emas, balki asliyatdagi evfemik mazmun va kommunikativ ta’sirni tarjima tilining tabiiy vositalari orqali qayta yaratishga xizmat qiladi.

Ekstralingvistik muammolar doirasida milliy-madaniy realiyalar, diniy tasavvurlar, urf-odatlar va ijtimoiy munosabatlarning tarjimaga ta’siri tahlil qilingan. Tadqiqotda evfemizmlarning milliy-madaniy xususiyatlarini tushuntirishda nomlash tabulari va murojaat shakllari ham ko‘rib chiqilgan. Jumladan, o‘zbek oilaviy nutqiy an’analarida kelinning turmush o‘rtog‘i yoki uning qarindoshlari ismini bevosita aytmasdan, ularga hurmat ifodalovchi muqobil nomlar bilan murojaat qilishi milliy nutqiy odobning o‘ziga xos ko‘rinishi sifatida tavsiflangan[31]. Bunday birliklarni ingliz tiliga tarjima qilishda ularning bevosita lug‘aviy ma’nosini berish bilan cheklanmasdan, murojaatning ijtimoiy va madaniy vazifasini ham saqlash zarurligi ko‘rsatilgan.

Mazkur bobning ikkinchi fasli *“**Evfemizmlarni tarjima qilish strategiyalari**”* deb nomlanib, unda ingliz va o‘zbek tillaridagi evfemizmlarni tarjima qilishning samarali usullari qiyosiy tahlil asosida yoritildi.

Evfemizmlar tarjimasi P. Nyumarkning tarjima nazariyasiga oid yondashuvlariga tayanilib[32], evfemizmlarni tarjima qilish usullari asliyat tiliga yo‘naltirilgan hamda tarjima tiliga yo‘naltirilgan strategiyalar doirasida tahlil qilingan. Birinchi guruhga *so‘zma-so‘z, sodiq va semantik tarjima*, ikkinchi guruhga *erkin, idiomatik hamda kommunikativ tarjima* kiritilgan. Ushbu usullarning evfemik mazmunni qayta yaratishdagi imkoniyatlari ingliz va o‘zbek tillaridagi muayyan birliklar asosida yoritilgan. Evfemizmlar tarjimasida kontekstual ma’noni aniqlash va unga mos leksik-grammatik vositalarni tanlash asosiy talab sifatida belgilangan. Chunki evfemik birliklarning mazmuni ko‘pincha ularning tarkibiy qismlari lug‘aviy ma’nolari yig‘indisidan kelib chiqmaydi. Shu sababli tarjimon polisemantik birlikning aynan qaysi ma’noda qo‘llanganini, uning bevosita yoki ko‘chma nominatsiyaga asoslanganini hamda nutqiy vaziyatdagi pragmatik vazifasini aniqlashi lozim. Mazkur jarayonda *konkretizatsiya, tushirib qoldirish, frazeologik muqobillashtirish, uslubiy o‘rindoshlik, transpozitsiya, kalka, transliteratsiya va izohli tarjima* kabi usullardan foydalanish imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan.

[31]Омонтурундиев А.Ж. Профессионал нутқ эвфемикаси. – Тошкент: «Фан», 2006. – Б.38.
[32]Newmark P. A textbook of translation. Shanghai Foreign Language Education Press, 1988, – P.45.

Konkretizatsiya usuli asliyatdagi nisbatan umumiy yoki kontekstual jihatdan mavhum mazmunni tarjima tilida aniqroq ifodalashga xizmat qiladi. Jumladan, Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanidagi “Yurakdan urgan ekan-a!..” [33]jumlasi ingliz tilida “You’ve really fallen for her, eh?” shaklida berilgan. Asliyatdagi bilvosita, obrazli ifoda tarjimada sevib qolish mazmunini anglatuvchi fall for frazeologik birligi yordamida aniqlashtirilgan. Bunda grammatik qurilish o‘zgargan bo‘lsa-da, personaj nutqidagi hissiy munosabat va kommunikativ maqsad saqlangan. Mazkur misol konkretizatsiyaning leksik-semantik aniqlashtirish bilan birga, sintaktik qayta qurish orqali ham amalga oshirilishini ko‘rsatadi.

Tushirib qoldirish usuli tarjima tilida ortiqcha takror yoki uslubiy nomuvofiqlikni bartaraf etish maqsadida qo‘llanadi[34]. Cho‘lponning “Kecha va kunduz” asaridagi *“oshini oshab, yoshini yashagan”* evfemik frazeologik ifodasining inglizcha tarjimada *“the old women of neighboring households”* shaklida berilishi bunga misoldir. Asliyatdagi qarilikni obrazli ifodalovchi frazeologik birlik tarjimada *old women* nominatsiyasi bilan almashtirilgan. Natijada denotativ mazmun saqlangan bo‘lsa-da, o‘zbekcha iboraning milliy-madaniy va emotsional-ekspressiv bo‘yoqdorligi qisman yo‘qolgan. Ushbu holat tushirib qoldirish usulini qo‘llashda axborotning asosiy mazmuni bilan bir qatorda, uning badiiy-estetik va evfemik funksiyasini ham hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi.

Tadqiqotda frazeologik va paremiologik birliklarni tarjima qilishda **funksional muqobil tanlash** muhimligi asoslangan. Jumladan, o‘zbek tilidagi “Tuyaning dumi yerga tekkanda” ifodasining ingliz tilidagi “when pigs fly” birligi bilan muvofiqlashishi har ikki tilda “hech qachon” mazmunining turli obrazlar vositasida ifodalanishini namoyon etadi. Shuningdek, Cho‘lponning “*Sanamasdan sakkiz demay turing hali*!” jumlasi ingliz tiliga “*Don’t count your chickens before they’re hatched!*” shaklida tarjima qilingan. Bunda asliyatdagi obraz boshqa milliy-madaniy obraz bilan almashtirilgan bo‘lsa-da, shoshilinch xulosa chiqarmaslik haqidagi umumiy pragmatik mazmun saqlangan. Mazkur misollar frazeologik va paremiologik birliklar tarjimasida leksik tarkibning aynan mos kelishi shart emasligini, asosiy mezon funksional va uslubiy muvofiqlik ekanligini ko‘rsatadi.

Evfemik birliklarni tarjima qilishda **kalka** usulining imkoniyatlari va cheklovlari ham tahlil qilingan. Xususan, Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanidagi “*suv bo‘lmasa tayammum”* ifodasi ingliz tilida “*You must have thought that you needed to do ablutions with sand”* shaklida berilgan[35]. Bunday tarjima iboraning diniy-madaniy tarkibiy qismlarini qisman aks ettirsa-da, asliyatdagi “*imkon bo‘lmaganda mavjud vosita bilan kifoyalanish*” mazmunini ingliz kitobxoniga yetarlicha ochib bermaydi. Dissertatsiyada taklif etilgan “*We’re non-professional music lovers”* varianti kontekstdagi havaskorlik mazmunini aniqroq ifodalasa-da, asl iboraning obrazliligi va madaniy xususiyatlarini to‘liq saqlamaydi. Demak, kalka usuli evfemik birlikning ma’nosi tarjima tilida tabiiy anglashilgan hollardagina samarali natija beradi; aks holda funksional muqobil yoki izohli tarjimaga murojaat qilish zarur.

---

[33]Cho‘lpon A. Kecha va kunduz: roman. – Toshkent: Akademnashr, 2021. – B. 34.

[34] Jo‘rayev K., Rasulova M., Axmedova M. Tarjimashunoslik. – Toshkent: Akademnashr, 2015. – B. 83.

[35] Cho‘lpon A. Night and Day: A Novel / Translated from Uzbek by Christopher Fort. – Boston: Academic Studies Press, 2019. – 292 p

Evfemizmlar tarjimasida ***transpozitsiya usuli*** ham muhim o‘rin tutishi aniqlangan. Mazkur usul tarjima jarayonida grammatik shakl, leksik tarkib, sintaktik qurilish yoki obrazli ifodaning o‘zgarishi orqali asliyat mazmunini qayta yaratishga xizmat qiladi. Jumladan, ingliz tilidagi *He’s between jobs* birligi o‘zbek tilida “*U hozir ish qidirmoqda*” tarzida ifodalanganda ishsizlik holati bevosita nomlanmasdan, vaqtinchalik vaziyat sifatida talqin qilinadi. Shuningdek, *He’s gone to a better place* evfemizmining “*U abadiy dam olmoqda”* shaklida berilishi o‘lim tushunchasini ifodalovchi metaforik modelning tarjima tiliga mos boshqa obraz bilan almashtirilishini ko‘rsatadi. Bunday transformatsiyalar evfemizmning shakliy qurilishini o‘zgartirgan holda uning asosiy kommunikativ vazifasini saqlashga yo‘naltiriladi.

Tadqiqotda evfemizmlarni tarjima qilishning muhim strategiyalaridan biri **muqobil evfemik birlikni tanlash** ekanligi ko‘rsatilgan. Jumladan, ingliz tilidagi *pass away* birligi o‘zbek tilida *vafot etmoq, olamdan o‘tmoq, hayotdan ko‘z yummoq* kabi ifodalar orqali berilishi mumkin. Ushbu muqobillar o‘lim hodisasini bevosita nomlashdan qochish vazifasini bajarsa-da, ularning uslubiy bo‘yoqdorligi va qo‘llanish doirasi farqlanadi. Shu bois tarjimon asliyatdagi evfemik birlikning emotsional ta’siri, nutqiy vaziyat va muallifning kommunikativ maqsadiga mos variantni tanlashi lozim. Bunda evfemizmni evfemizm bilan tarjima qilish funksional muvofiqlikni ta’minlashning maqbul usullaridan biri sifatida baholangan.

Milliy-madaniy xususiyatga ega birliklarni tarjima qilishda **transliteratsiya** va **izohli tarjima** usullarining ahamiyati ham yoritilgan. Xususan, Cho‘lponning “Kecha va kunduz” asaridagi *“Nomahramlarga ovozini eshitdirsa, rozi emasman”* jumlasida qo‘llangan “*nomahram”* birligi diniy-axloqiy me’yorlar bilan bog‘liq madaniy tushunchani ifodalaydi. Mazkur birlikning inglizcha tarjimada nomahram shaklida saqlanishi uning milliy-madaniy xususiyatini yetkazishga xizmat qiladi. Biroq bunday o‘zlashtirishda mazmunning tarjima tili vakillari uchun yetarlicha tushunarli bo‘lishi har doim ham ta’minlanmaydi. Shuning uchun muqobili cheklangan milliy-madaniy birliklarni transliteratsiya qilish zarurati tug‘ilganda ularning mazmunini kontekst yoki qisqa izoh orqali ochib berish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

XULOSA

“Ingliz va o‘zbek tillaridagi evfemizmlarning struktur-semantik xususiyatlari va tarjima muammolari” mavzusidagi dissertatsiya ishi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Ingliz va o‘zbek tillaridagi evfemizmlar tilning oddiy nominativ birliklari emas, balki ijtimoiy, madaniy, psixologik va kommunikativ omillar ta’sirida shakllanuvchi murakkab lingvistik hodisa ekanligi asoslandi. Evfemizmlarning yuzaga kelishi bevosita nomlashning muayyan kommunikativ vaziyatda noqulay, keskin yoki ijtimoiy jihatdan nomaqbul deb baholanishi bilan bog‘liq bo‘lib, ularni qo‘llash zarurati jamiyatda shakllangan axloqiy-estetik me’yorlar, nutqiy etiket, milliy-madaniy qadriyatlar va kommunikativ ehtiyojlar bilan belgilanadi. Shu jihatdan evfemizatsiya til tizimining ichki imkoniyatlari bilan bir qatorda,

jamiyatning ijtimoiy-madaniy taraqqiyoti bilan ham uzviy aloqador jarayon sifatida namoyon bo‘ladi.

2. Evfemizm, tabu va perifraza hodisalarining o‘zaro munosabati qiyoslanayotgan ikki til materiali asosida aniqlashtirildi. Tabu muayyan tushuncha yoki hodisaning bevosita nomlanishiga nisbatan mavjud bo‘lgan ijtimoiy-madaniy cheklovni ifodalashi, evfemizatsiya esa ana shu cheklov yoki kommunikativ noqulaylik sharoitida mazmunni bilvosita, yumshatilgan va ijtimoiy jihatdan maqbul shaklda ifodalash vositasi sifatida namoyon bo‘lishi asoslandi. Perifraza esa struktur jihatdan bilvosita nomlash vositasi bo‘lsa-da, uning evfemik maqomi faqat muayyan kommunikativ va kontekstual sharoitda noqulay mazmunni yumshatish funksiyasi bilan belgilanadi.

3. Ingliz va o‘zbek tillaridagi evfemizmlarning diaxron taraqqiyoti dinamik va ijtimoiy jihatdan shartlangan jarayon ekanligi aniqlandi. Evfemik birliklarning yuzaga kelishi, ma’no va funksional xususiyatlarining o‘zgarishi, ayrim birliklarning iste’moldan chiqishi hamda ularning o‘rnini yangi nominatsiyalarning egallashi jamiyatdagi tarixiy, siyosiy, diniy, axloqiy va madaniy o‘zgarishlar bilan bog‘liqligi asoslandi. Shu nuqtayi nazardan evfemizmlarning tarixiy rivojlanishi tilning jamiyatdagi o‘zgarishlarga moslashish xususiyatini namoyon etuvchi jarayon sifatida baholandi. Diaxron tahlil evfemik tizimning statik emas, balki davr talablari va ijtimoiy ehtiyojlar asosida muntazam ravishda yangilanib borishini ko‘rsatdi.

4. Ingliz va o‘zbek tillaridagi evfemizmlarning morfologik, sintaktik va semantik usullar asosida shakllanishi aniqlandi hamda ushbu vositalarning realizatsiyasi qiyoslanayotgan tillarning struktur-tipologik xususiyatlari bilan belgilanishi asoslandi. Morfologik evfemizatsiyada tilning derivatsion imkoniyatlari, sintaktik evfemizatsiyada grammatik va konstruktiv qayta tashkil etish, semantik evfemizatsiyada esa mavjud nominatsiyaning ma’no jihatdan qayta talqin qilinishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, ingliz va o‘zbek tillarining strukturaviy farqlari evfemik mazmunning tashqi shaklda turlicha ifodalanishiga sabab bo‘lsa-da, mazkur vositalarning umumiy kommunikativ yo‘nalishi saqlanib qolishi belgilandi.

5. Evfemik ma’noning shakllanishida metafora, metonimiya, sinekdoxa, bilvosita nominatsiya va perifrazal ifodalarning funksional imkoniyatlari aniqlanib, ularning evfemik mazmunni yuzaga keltirishdagi o‘rni asoslandi. Mazkur semantik vositalar orqali bevosita nomlashning kommunikativ keskinligi kamaytirilishi, mazmunning nisbatan yumshoq va bilvosita shaklda ifodalanishi hamda adresat tomonidan qabul qilinishining maqbulligi ta’minlanadi. Ushbu jarayonda semantik qayta talqin milliy-madaniy qadriyatlar, ijtimoiy baholash mezonlari va konkret kommunikativ vaziyat bilan uzviy bog‘liqligi aniqlandi.

6. Ingliz va o‘zbek tillaridagi evfemizmlarning qiyosiy tahlili formal-strukturaviy muvofiqlik bilan funksional-pragmatik muvofiqlikning har doim ham bir-biriga mos kelmasligini ko‘rsatdi. Bir xil kommunikativ vazifani bajaruvchi evfemik birliklar qiyoslanayotgan tillarda turli morfologik, sintaktik yoki semantik vositalar orqali shakllanishi mumkin. Shu sababli evfemizmlarni qiyosiy tavsiflashda ularning faqat shakliy tuzilishini emas, balki semantik mazmuni, kommunikativ vazifasi, ijtimoiy maqbulligi va lingvomadaniy xususiyatlarini ham

hisobga olish zarurligi asoslandi. Mazkur holat evfemik birliklarning qiyosiy tadqiqida funksional jihatning alohida ilmiy ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

7. Evfemizmlarni tarjima qilishda yuzaga keladigan asosiy muammolar konnotativ nomuvofiqlik, to‘liq yoki qisman ekvivalentlikning mavjud emasligi hamda ijtimoiy-pragmatik kontekstning farqlanishi asosida tizimlashtirildi. Bir tilda muayyan mazmunni yumshatish yoki ijtimoiy jihatdan maqbul shaklda ifodalashga xizmat qiluvchi birlikning ikkinchi tilda aynan shu kommunikativ va emotsional ta’sirni beruvchi muqobili mavjud bo‘lmasligi mumkin. Shu sababli evfemizm tarjimasida faqat lug‘aviy muvofiqlikni ta’minlash yetarli bo‘lmay, uning konnotativ va pragmatik yuklamasini ham hisobga olish zarurligi aniqlandi.

8. Evfemik birliklarning tarjimaviy adekvatligi ularning denotativ mazmunini saqlash bilan bir qatorda konnotativ, pragmatik, stilistik va lingvomadaniy xususiyatlarini tarjima qilinayotgan tilda qayta yaratish darajasi bilan belgilanishi asoslandi. Tarjima jarayonida asliyatdagi evfemik birlikning asosiy mazmuni saqlangan taqdirda ham, uning yumshatish, bilvosita ifodalash, hurmat bildirish, ijtimoiy jihatdan maqbul nomlash yoki noqulay mazmunning emotsional ta’sirini kamaytirish funksiyasi yo‘qolishi mumkin. Shu bois evfemizmlar tarjimasida semantik adekvatlik, strukturaviy moslashuv va pragmatik-funksional adekvatlikning o‘zaro uyg‘unligi muhim mezon sifatida belgilandi.

9. Evfemizmlarni tarjima qilish usullarini tanlash ularning semantik-pragmatik xususiyatlari, strukturaviy tashkil etilishi, kommunikativ maqsadi va milliy-madaniy shartlanganligiga bog‘liqligi aniqlandi. To‘g‘ridan to‘g‘ri tarjima, ekvivalentli tarjima, modulyatsiya, transpozitsiya va adaptatsiya kabi usullarning qo‘llanishi tarjima birligining konkret xususiyatlariga ko‘ra belgilanadi. Bunda to‘g‘ridan to‘g‘ri tarjima formal va semantik muvofiqlik nisbatan yuqori bo‘lgan holatlarda, ekvivalentli tarjima funksional jihatdan mos muqobil mavjud bo‘lganda, modulyatsiya va transpozitsiya formal tuzilish bilan mazmun yoki funksiyaning nomuvofiqligi sharoitida, adaptatsiya esa milliy-madaniy tafovutlarni hisobga olish zarur bo‘lgan vaziyatlarda qo‘llanishi asoslandi.

10. Tadqiqot natijasida ingliz va o‘zbek tillaridagi evfemizmlarning struktur-semantik, lingvomadaniy va pragmatik xususiyatlari o‘zaro uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘lishi umumlashtirildi. Evfemik birlikning mohiyatini to‘liq ochib berish uchun uning strukturaviy shakli, semantik mazmuni, derivatsion usuli, milliy-madaniy shartlanganligi, ijtimoiy maqbulligi va kommunikativ funksiyasini birgalikda tahlil qilish zarurligi asoslandi. Shu bilan birga, mazkur natijalar evfemizmlarni qiyosiy-chog‘ishtirma o‘rganish hamda ularni tarjima qilish jarayonini takomillashtirishda strukturaviy, semantik, lingvomadaniy va funksional-pragmatik mezonlarning o‘zaro bog‘liq holda qo‘llanishi ilmiy jihatdan muhimligini ko‘rsatdi. Tadqiqotning mazkur natijalari dissertatsiyada belgilangan vazifalar hamda to‘rtta ilmiy yangilikning mantiqiy yakunini tashkil etadi.

JIZZAKH STATE PEDAGOGICAL UNIVERSITY SINGLE ACADEMIC COUNCIL ON THE BASIS OF ACADEMIC COUNCIL

PhD.01/2025.27.12.Fil.06.02 JIZZAKH STATE PEDAGOGICAL UNIVERSITY

KHAYDAROVA SHOIRA TOKHIR KIZI

STRUCTURAL-SEMANTIC FEATURES AND TRANSLATION PROBLEMS OF EUPHEMISMS IN ENGLISH AND UZBEK

10.00.13 – Comparative and Contrastive Linguistics

THE ABSTRACT
of the doctor of philosophy (PhD) dissertation in philological science

Jizzakh – 2026

The topic of the Doctor of Philosophy (PhD) dissertation has been registered with the Higher attestation Commission under the number B2022.1.PhD/Fil2307.

The dissertation was completed at Jizzakh State Pedagogical University

The abstract of the dissertation is posted in three languages (Uzbek, Russian, English (resume) on the website of jdpu.uz and the information and educational portal "Ziyonet" www.ziyonet.uz.

Scientific supervisor:	**Akhmedov Oybek Saparboevich** Doctor of Philology, Professor
Official opponents:	**Mirsanov Gaybulla Kulmurodovich** Doctor of Philology, Professor
	Ermetova Jamila Ismailovna Doctor of Philology, Professor
Leading organization:	**Bukhara State University**

The dissertation defense will be held at the meeting of the Academic Council of Jizzakh State Pedagogical University, PhD.01/2025.27.12.Fil.06.02, «_____»_____ 2026 at _____ (Address: 4 Sh. Rashidov Avenue, Jizzakh, 130100; Tel.: (872) 226-13-57, 226-21-76; Fax: (872) 226-46-56; e-mail: jdpuinfo@umail.uz). Jizzakh State Pedagogical University, Main Academic Building, 2nd floor, Small Conference Hall.

The dissertation can be viewed at the Information Resource Center of Jizzakh State Pedagogical University (registered under number _____) (Address: 4 Sh. Rashidov Avenue, Jizzakh, 130100; Tel.: (872) 226-13-57, 226-21-76; Fax: (872) 226-46-56).

The dissertation abstract was distributed on «_____»_____, 2026.
(Register report number _____ dated «_____» _____, 2026)

A.E. Mamatov
Chairman of the Scientific Council awarding scientific degrees, Doctor of Philological Sciences, Professor

Kh.L. Makhammadiyev
Secretary of Scientific Council awarding scientific degrees, Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

I.R. Ermatov
Chairman of Scientific Seminar at the Scientific Council awarding scientific degrees, Doctor of Philological Sciences, Professor

INTRODUCTION (Abstract of the dissertation (PhD) dissertation)

Relevance and necessity of the dissertation topic. In contemporary global linguistics, increasing emphasis is placed on viewing language not merely as a system of grammatical and lexical rules, but as a complex sociocultural phenomenon reflecting human cognition, worldview, lifestyle, culture, social relations, emotions, and communicative intentions. The anthropocentric, pragmatic, and linguocultural investigation of linguistic units provides opportunities to reveal the interrelationships between human beings, language, cognition, and culture.In this regard, investigating the linguistic nature of euphemisms, which serve to express unpleasant, offensive, taboo, or socially sensitive concepts in a milder and more socially acceptable manner, constitutes one of the pressing issues in modern linguistics. The formation and use of euphemistic units are directly associated not only with the internal regularities of language but also with the moral norms, national mentality, values, social relations, and communicative intentions characteristic of a particular society.

In global linguistics, euphemisms were initially investigated as linguistic devices used to replace taboo expressions and mitigate harshness and discomfort in speech. However, contemporary linguistic research places particular emphasis on their comprehensive investigation from structural-semantic, pragmatic, cognitive, sociolinguistic, and linguocultural perspectives.The factors underlying the emergence of euphemistic units, their structural organization and semantic classifications, their manifestation in various types of discourse, and their transformation under the influence of sociocultural factors, as well as the preservation of their meaning and communicative effect in translation from one language into another, constitute significant areas of contemporary linguistic research.Identifying the universal and nationally specific cultural characteristics of euphemisms in languages belonging to different language families, conducting a comparative analysis of the structural and semantic similarities and differences between euphemistic units in English and Uzbek, and investigating the methods of reproducing their connotative, pragmatic, and linguocultural meanings alongside their denotative meanings in translation are among the pressing tasks facing modern linguistics and translation studies.

In recent years, particular attention has been paid in New Uzbekistan to enhancing the prestige and status of the Uzbek language as the state language, investigating its lexical richness within the framework of contemporary linguistic paradigms, improving the system of foreign language learning and teaching, and promoting the development of translation studies and intercultural communication.

In this regard, particular emphasis should be placed on the following statements made by the President of the Republic of Uzbekistan, Shavkat Mirziyoyev: “Greater attention will be paid to our native language, which is a symbol of our national identity and the foundation of our spirituality. Our children must acquire a thorough command of their native language and foreign languages at school and develop computer skills. We must encourage our children to take an interest in professions, arts, and culture. It is essential to develop students’ independent and creative

thinking, teamwork, and communication skills. The current policy of openness, the increasing inflow of foreign investment, and the establishment of new enterprises necessitate encouraging our young people to acquire modern knowledge and learn foreign languages. These developments have set new tasks for linguists in accordance with international standards."[1]. These priorities have set new tasks for linguists that correspond to internationally recognized standards. Under the conditions of globalization, the comparative study of the interaction of the Uzbek language with other languages, particularly English, as well as the improvement of methods for adequately reproducing linguocultural units possessing nationally specific cultural content in translation, is acquiring considerable theoretical and practical significance. Indeed, euphemisms reflect not only softened or indirect expressions of particular concepts but also the national worldview, speech etiquette, social values, and cultural norms of a given linguistic community.Therefore, a comparative investigation of the structural-semantic features of euphemisms in English and Uzbek, the identification of semantic, pragmatic, and linguocultural discrepancies arising in the process of their translation, and the determination of appropriate strategies for overcoming such discrepancies are of considerable theoretical and practical importance.

This dissertation contributes, to a certain extent, to the implementation of the tasks set forth in the following Decrees of the President of the Republic of Uzbekistan: No. PD-4797 of May 13, 2016, "On the Establishment of the Tashkent State University of Uzbek Language and Literature Named after Alisher Navoi"; No. PR-5847 of October 8, 2019, "On Approval of the Concept for the Development of the Higher Education System of the Republic of Uzbekistan until 2030"; No. PR-5850 of October 21, 2019, "On Measures to Radically Enhance the Status and Prestige of the Uzbek Language as the State Language"; No. PR-6084 of October 20, 2020, "On Measures for the Further Development of the Uzbek Language and Improvement of Language Policy in Our Country"; and No. PR-158 of September 12, 2023, "On the Uzbekistan – 2030 Strategy"; as well as Resolution No. PQ-308 of October 20, 2025, "On Additional Measures for the Further Development of the State Language," and other regulatory legal acts.

The accordance of research with the priorities of the development of science and technology of the Republic. The research was carried out within the framework of the priority direction of the development of science and technology of the republic I. "Formation of a system of innovative ideas and ways of their implementation in the social, legal, economic, cultural, spiritual and educational development of an information society and a democratic state."

The extent of study of the problem. In world linguistics, euphemisms, along with taboo words, have constituted a distinct object of study within ethnolinguistics. The foundations of this field were laid by J. G. Herder[2] in the eighteenth century and further developed by the linguist Wilhelm von Humboldt[3] in the first half of the

[1] Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг 2022 йил 20 декабрдаги Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига мурожаатномаси // "Халқ сўзи" 2022 йил 21 декабрь. №272(8334).
[2] https://www.projekt-gutenberg.org/herder/humanita/chap001.html
[3] Гумбольдт В. Язык и философия культуры. – М.: Прогресс, 1985. – С. 448

nineteenth century, contributing to its subsequent formation as an independent field of scholarly inquiry.

A significant contribution to the introduction, theoretical interpretation, and development of the linguistic concept of euphemism in world linguistics was made by such scholars as L.A. Bulakhovsky, A.A. Reformatsky, B.A. Larin, L.P. Krysin, V.P. Moskvin, V.Z. Sannikov, E.E. Tyurina, N.S. Bolotnova, Z.Z. Kikvidze, L.V. Artyushkina, T.V. Kochetkova, T.V. Boyko, and T.S. Bushueva[4]. In Russian linguistics, various aspects of euphemism have also been investigated by A.M. Katsev, N.S. Boschaeva, L.N. Saakyan, Yu.S. Baskova, and E.O. Miloenko[5].The linguistic characteristics of taboo and euphemized lexical units have also been extensively examined by Russian and foreign scholars. In particular, these issues have received comprehensive treatment in such works as J. Ayto's Euphemisms and The English-Russian Dictionary of Taboo and Euphemistic Vocabulary, A.M. Katsev's Language Taboo and Euphemism, B.A. Larin's On Euphemisms[6], and S. Widłak's The Problem of Euphemism against the Background of the Theory of Linguistic Fields.L.A. Bulakhovsky, A.A. Reformatsky, and B.A. Larin investigated euphemisms from a historical perspective, primarily in relation to ancient taboos. L.P. Krysin, V.P. Moskvin, V.Z. Sannikov, and E.P. Senichkina[7] examined the means, mechanisms, and communicative purposes of euphemization in the Russian language. A.M. Katsev, N.S. Boschaeva, L.N. Saakyan, Yu.S. Baskova, and E.O. Miloenko, in turn, investigated various characteristics and functional aspects of

[4]Булаховский Л.А. Введение в языкознание. – М, 1953. – С. 105 ; Реформатский А.А. Введение в языкознание. – М., 1967. – С. 110.; Ларин В.А. Об эвфемизмах Проблемы языкознания – М.: МГУ, 1961. – С. 89 ; Крысин Л.П. Можно ли по речи узнать интеллигента? // Общественные науки и современность. 2004. – № 5. – С. 157; Москвин В.П. Выразительные средства современной русской речи. Тропы и фигуры. Терминологический словарь. Архивировано 17 ноября 2020.; Санников В.З. Морфологический компонент лингвистического процессора // Всесоюзноя конференция по искусственному интеллекту. Тезисы докладов. – Переславль-Залесский, 1988. – С. 56-72.; Тюрина Е.Е. Семантический статус эвфемизмов и их место в системе номинативных средств языка (на материале английского языка): Автореф.дис.кан.филол.наук. – Нижний Новгород, 1998. – С. 18; Болотнова Н.С. Эвфемизация в современном словоупотреблении и языкавая компетенция личности // Языковая компетенция. – Новосибирск, 1998, 4.1. – С.19-23.; Киквидзе З.З. Социолингвистический аспект изучения грамматического эвфемизма в разносистемных языках // Актуальные проблемы лингвистики и лингводидактики. – Тюмень, 1997. – С. 38-42.; Артюшкина Л.В. Семантический аспект эвфемистической лексики в современном английском языке: Автореф.дисс…. канд.филол.наук. – М. 2001. – С. 17 ; Кочеткова Т.В. Эвфемизмы в речи носителя элитарной речевой культуры//Вопросы стилистики. –Саратов, 1998. –Вып. 27. – С.168-178.; Бойко Т.В. Эвфемия и дисфемия в газетном тексте: Автореф.дисс…канд.филол.наук. – М.: 2005. – С. 38; Бушуева Т.С. Прагматический аспект эвфемизмов и дисфемизмов в современном английском языке: Автореф.дисс….канд.филол.наук. – Смоленск, 2019. – С. 42.

[5] Кацев А.М. Языковое табу и эвфемия. –М.: 1988. – С. 86; Босчаева Н.Ц. Эвфемистичность в диалогической речи. – Л.: ЛГУ, – №4, 1989. – С. 79-81.; Саакян Л.Н. Эвфемия как прагмалингвистическая категория в дискурсивной практике непрямого речевого убеждения: Автореф.дисс….канд.филол.наук. – Москва, 2010. – 24 с.; Баскова Ю.С. Эвфемизмы как средство манипулирования в языке СМИ. (на материале русского и английского языков): Автореф.дисс….канд.филол.наук.– Краснодар, 2006. – С. 24; Милоенко Е.О. Специфика функционирования эвфемизмов в индивидуальном лексиконе. Автореф. на соис.учен.степени кандиата фил.наук. – Курск, 2009, – С. 29.

[6] Эйто Дж. Эвфемизмы. Англо-русский словарь лексики табу и эвфемизма. – М.: 1994.; Кацев А.М. Языковое табу и эвфемия. – М.: 1988. – С. 86; Ларин В.А. Об эвфемизмах Проблемы языкознания. – М: МГУ, 1961. – С. 89 ; Видлакс С. "Проблема эвфемизма на фоне теорий языкового поля" (1965; 1967). – С. 115.

[7] Крысин Л.П. Можно ли по речи узнать интеллигента? // Общественные науки и современность. 2004. – № 5. – С. 157; Москвин В.П. Эвфемизмы в лексической системе современного русского языка Изд. стереотип. – Москва, 2006. – С. 255; Санников В.З. Морфологический компонент лингвистического процессора // Всесоюзноя конференция по искусственному интеллекту. Тезисы докладов. –Переславль-Залесский, 1988. – С. 56-72.; Сеничкина Е.П. Эвфемизмы русского языка. – Москва, 2006. – С. 143.

euphemisms in English and Russian.In her extensive research on euphemism and the politeness principle in contemporary English, G.A. Vildanova provided a detailed analysis of euphemistic units, with particular emphasis on the gender-related aspects of euphemism in the English language[8]. N.A. Baskakov, in turn, addressed the problems associated with euphemistic nominations in the languages of the Altaic peoples.

Furthermore, the characteristics of taboo and euphemistic lexical units have been extensively investigated by numerous Russian and international linguists. In particular, these issues have been comprehensively examined in J. Ayto's Euphemisms and The English–Russian Dictionary of Taboo Words and Euphemisms, A. M. Katsev's Language Taboo and Euphemia, B. A. Larin's On Euphemisms, and S. Widlak's The Role of Euphemisms within the Theory of the Linguistic Field. L. A. Bulakhovsky, A. A. Reformatsky, and B. A. Larin investigated euphemisms from a historical perspective, tracing their origins to ancient taboo practices. The functions and purposes of euphemisms in the Russian language were examined by L. P. Krysin, V. P. Moskvin, V. Z. Sannikov, and E. P. Senichkina. The characteristics of euphemisms in English and Russian were analysed in the studies of A. M. Katsev, N. S. Boschaeva, N. L. Saakyan, Yu. S. Baskova, and E. O. Miloenko. In her dissertation entitled Euphemism and the Principle of Politeness in Modern English: A Gender Perspective, G. A. Vildanova provided a comprehensive analysis of the gender-specific features of English euphemisms. N. Baskakov, in turn, examined the problems of euphemistic nomination in the languages of the Altaic peoples.

